

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
AKADEMIYASI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK _____**



“Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish” kafedrası

“Prokurorlik faoliyati” yo‘nalishi tinglovchisi

JUMAYEV SHOHJAHON BEGIMQUL O‘G‘LINING

**“PROKUROR TEKSHIRUVLARI VA ULARNI QONUN HUJJATLARIDA
TARTIBGA SOLISHNING DOLZARB MASALALARI”**

mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHI

Ilmiy rahbar: A.B.Komilov (PhD)

**Ilmiy maslahatchi: B.X.Po‘latov
(yu.f.d. prof)**

Toshkent-2022

Annotatsiya: Dissertatsiyada prokuror tekshiruvlarini qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari, prokuror tekshiruvi tushunchasi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari, muddatlari hamda uni o'tkazishning tayyorlov, asosiy, yakuniy bosqichlari, tekshiruvlarga mutaxassislarni jalb etish masalasi, prokuror tekshiruvi davomida prokurorning qonuniy talablarini bajarish muddatlari, prokuror tekshiruvlariga doir statistik ma'lumotlar ilg'or xorij tajribalari asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В диссертация на основе передового зарубежного опыта проанализированы актуальные вопросы законодательного регулирования прокурорских проверок, понятие прокурорской проверки, основания, сроки и подготовительные, основные, заключительные этапы проведения прокурорской проверки исполнения законов, вопросы привлечения к проверкам специалистов, сроки выполнения прокурором законных требований в ходе прокурорской проверки, статистические данные по прокурорским проверкам.

Abstract: In the dissertation, the actual issues of the regulation of prosecutor's verifications in the legislation, the concept of prosecutor's verification, the basis for conducting prosecutor's verifications on the execution of laws, the deadlines and the preparation of its conduct, the main, final stages, the issue of attracting specialists to verifications, the periods of fulfillment of the legal requirements of the prosecutor.

Mundarija:

KIRISH	4-10
I BOB. QONUNLAR IJROSI YUZASIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARI VA ULARNING NAZARIY-HUQUQIY AHAMIYATI.	
1.1.Prokuror tekshiruvlari tushunchasi, maqsadi va vazifalari	11-28
1.2.Prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish asoslari hamda ahamiyati.....	29-36
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	36-37
II BOB. QONUNLAR IJROSI YUZASIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.	
2.1.Prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish bosqichlari va ularning alohida xususiyatlari.....	38-48
2.2.O‘zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan prokuror tekshiruvlarining ahamiyati hamda amalga oshirish mexanizmi	49-61
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	61-62
III BOB. PROKUROR TEKSHIRUVLARINI QONUN HUJJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.	
3.1.Prokuror tekshiruvlari bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining o‘ziga xos tomonlari.....	63-68
3.2.Prokuror tekshiruvlarini milliy qonunchilikda tartibga solish istiqbollari.....	69-78
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	78-79
Xulosa.....	80-84
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	85-89
Ilovalar.....	90-98

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanganligi va dolzarbligi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishda Respublikamizda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi hamda sifatli va samarali prokuror tekshiruvlarini o'tkazish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi O'RQ-257-II-sonli "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi. Mazkur Qonunning 2-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni samarali hamda salmoqli amalga oshirish maqsadida sifatli prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning ahamiyati juda ham katta hisoblanadi.

Prokuratura xodimlari yuqori kasbiy malaka va yuksak insoniy fazilatlarini bilan davlat organlari xizmatchilariga o'rnak bo'lishi, hamisha adolat va qonuniylik himoyasida turishi lozim¹

Prokuratura organlari xodimlarining ishi katta mas'uliyat, fidoyilik, halollik talab qiladi. Qabul qilinayotgan har bir qaror zamirida inson taqdiri turadi. Shunday ekan, yetti o'lchab bir kesish bu borada asosiy mezon bo'lmog'i shart².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan

¹ Mirziyoyev.Sh.M. 2018-yil 31-yanvardagi Bosh prokuraturaning kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqidan // Ma'lumot olingan internet manbasi – <https://xabar.uz>, 31.01.2018.

² Mirziyoyev.Sh.M. 2017-yil 7-yanvarda prokuratura xodimlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqidan // Ma'lumot olingan internet manbasi – <https://kun.uz/uz/news>, 07.01.2017.

2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishida sud, huquqni muhofaza qilish organlari, jumladan, prokuratura organlari oldiga bir qator vazifalar qo‘yildi. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash, demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarini so‘zsiz ijro etish uchun prokuratura organlarining kuch va imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilishni taqazo etdi³.

Shu kabi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yetti yo‘nalish, 100 ta maqsad belgilab qo‘yilgan bo‘lib, uning 2-yo‘nalish, 17-maqsadi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga bag‘ishlangan va unda qonuniylikni qat‘iy ta‘minlovchi, ochiq va adolatli *prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish* hamda “Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezoniga aylantirish vazifasi qo‘yilgan.

Mazkur Farmonning 2-ilovasidagi “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga mo‘ljallangan Davlat dasturining 60-bandida prokuratura organlari faoliyatiga ham bag‘ishlangan 17-maqsadni amalga oshirish mexanizmi nazarda tutilgan bo‘lib, unda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi tizimni joriy etish ifodalangan.

Shu kabi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5438-sonli “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

³ 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-yil., 06/21/6217/0409-son.

to'g'risida"gi Farmonida ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishni taqozo etishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Harakatlar strategiyasi" hamda "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da prokuratura organlari oldiga ushbu vazifalar qo'yilishining o'ziyoq, mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'tgan davr mobaynida huquqni qo'llash holatini kompleks tahlil qilish, qonunbuzilishlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini o'z vaqtida bartaraf etish choralari ko'rish, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashda o'z vaqtida va sifatli o'tkazilgan prokuror tekshiruvlari muhim rol o'ynadi.

Tadqiqot ishining maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi prokuror tekshiruvlari, ularni qonun hujjatlarida tartibga solish istiqbollari hamda imkoniyatlarini tahlil qilishdan, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishdagi muammolarni aniqlash va bu boradagi xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot ishining vazifalari esa quyidagilardan iborat:

birinchidan, prokuror tekshiruvlari tushunchasi hamda uning ahamiyatini yoritib berish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari va ularni takomillashtirish masalalarini tahlil etish;

uchinchidan, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalarni tahlil etish va ularni takomillashtirishga qaratilgan takliflar tayyorlash;

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan o'tkazilgan prokuror tekshiruvlarining ahamiyatini statistik ma'lumotlar asosida yoritib berish;

beshinchidan, prokuror tekshiruvlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos tomonlari o'rganish hamda milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalasini tahlil qilish;

oltinchidan, prokuror tekshiruvlarini milliy qonunchilikda tartibga solish istiqbollari muhokama qilish hamda faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekistonda prokuror tekshiruvlari va ularni qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari, milliy qonunchilik, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti asosida ilk bor kompleks tarzda ilmiy tadqiq etilganligi bilan belgilanib, quyidagilardan iborat:

birinchidan, prokuror tekshiruvlari tushunchasi hamda uning ahamiyati yoritib berilgan va "*prokuror tekshiruvi*" tushunchasiga ta'rif ishlab chiqilgan;

ikkinchidan, ilg'or xorij tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasida prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslarini takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirilgan;

uchinchidan, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlariga oid masalalar tahlil etilib, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlari ishlab chiqilgan;

to'rtinchidan, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddatlari ayrim chet davlatlar qonunchiligi asosida o'rganilib, aniq va qat'iy muddatni belgilash hamda uni to'xtatib turish, uzaytirish masalalari qonun hujjati bilan tartibga solinishi lozimligi taklif etilgan;

beshinchidan, prokuror tekshiruvi o'tkazilayotgan davrda prokurorning qonuniy talablarini bajarish muddatlariga oid qat'iy tartib ilg'or xorij tajribasiga tayangan holda ishlab chiqilgan;

oltinchidan, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga mutaxassislarni jalb etish borasidagi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ilgari surilgan, xususan, mutaxassislarni manfaatdor etish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib prokuror tekshiruvlari va ularni qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalariga oid ijtimoiy munosabatlar, prokuror tekshiruvlari tushunchasi hamda uning ahamiyatiga oid masalalar, O‘zbekiston Respublikasida prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning huquqiy asoslari va ularni qonun hujjatida belgilab qo‘yish bilan bog‘liq munosabatlar hamda xorijiy davlatlardagi prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishni qonun hujjatlarida belgilab qo‘yish bilan bog‘liq munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari tushunchasi, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish muddatlari, asoslari hamda bosqichlari bilan bog‘liq muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqot bo‘yicha adabiyotlar tahlili.

O‘zbekistonda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish masalalarini huquqshunos olimlar B.X.Po‘latov⁴, F.X.Raximov⁵, O.M.Madaliev⁶, Z.M.Islomov⁷, M.X.Rustambayev⁸, M.A.Radjabova⁹, A.J.Davletov¹⁰, M.Maxbubov¹¹, Z.S.Ibragimov¹², A.B.Komilov¹³, F.Otaxonov¹⁴ va boshqalar ilmiy tadqiq qilishgan. Mazkur mavzuning ayrim jihatlari bir qator huquqshunoslar, shu jumladan A.Haydarov¹⁵,

⁴ B.X. Po‘latov “Prokuror nazorati”. Darslik. T.: “O‘zbekiston” 2009. B. 130.

⁵ Qarang: Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo‘nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiy tahriri ostida. – T.: “Noshir” nashriyoti, 2008. – B. 87-94.

⁶ Madaliev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. -T.: TDYuI nashriyoti, 2009. – B.106.

⁷ Исламов З.М. К какой власти отнести прокуратуру? - Народное слово, 3 июля 2003 года.

⁸ Рустамбаев М., Никифорова Е. Прокуратура в правовом государстве // Правда Востока, 2002 йил 19 ноябрь.

⁹ Qarang: Radjabova M.A. Huquqiy davlatchilik sari. –T.: “O‘zbekiston”, 2000. - 22-24-betlar.

¹⁰ Қаранг: Давлетов А.Ж. Прокурорский надзор: Учебник. - Нукус: “Билим”, 1999. - Стр. 8.

¹¹ Qarang: Maxbubov M. O‘zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi. Yur.fanlar doktorligi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent, 1993 yil. 16-bet.

¹² Ibragimov Z.S. Davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o‘rni va roli. Toshkent,2010. 379 bet.

¹³ Komilov A.B. Qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvini qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari // Central Asian academic journal of scientific research, 2021, - 229-235-b.

¹⁴ Otajonov F. Prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi va qonuniylikni ta‘minlashdagi roli. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi. №1 (49) 2022-yil.

¹⁵ Haydarov Asqarali Akbaraliyevich. “O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining huquqiy faoliyati” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. 55-bet.

K.Ismoilov¹⁶, A.Sangilov¹⁷, J.Fayziyev¹⁸ va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Shuningdek, MDH ga a'zo mamalakatlarda prokuror tekshiruvlari, ularni o'tkazish asoslari, muddatlari hamda prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rniga I.V.Kachalov¹⁹, I.O.Kachalov²⁰, S.G.Berezovskaya²¹ V.I.Veretennikov²², O.Vinogradov²³ va M.Teregubov²⁴ kabi olimlar o'z e'tiborlarini qaratganlar.

Ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonida ushbu mavzuning hozirgi kunda dolzarbligini hisobga olib, aynan prokuror nazorati hamda prokuratura organlarining faoliyati bo'yicha rus olimlari D.S.Belousova²⁵, A.P.Rijakov²⁶, V.Semenov²⁷, M.Rayanov²⁸ va S.V. Borotsinlar²⁹ ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Tadqiqot usullari. Ilmiy izlanish amalga oshirishda bilishning ilmiy usullaridan – analiz, sintez, statistik, aniq-sotsiologik, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, so'rovnomatadqiqot o'tkazish usullari va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, unda bildirilgan takliflar, xulosa va tavsiyalardan mamlakatimizda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini amalga oshirilishiga doir normativ-huquqiy va tashkilish-huquqiy asoslarni rivojlantirish, bu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotining

¹⁶ Ismailov.K “Mas’uliyat va ruhiyat: sud va prokuratura organlari xodimlarining ish faoliyatida psixologik baholash tizimi haqida”, maqola, “Huquq va burch” jurnali. 2010-yil. 7-8-son.

¹⁷ Sangilov.A “Prokuratura organlari: nazorat-tahlil faoliyati”, maqola, “Huquq va burch” jurnali. 2011-y. 4-son.

¹⁸ Fayziyev. J. Qonun hujjatlari ijrosi prokuratura organlarining doimiy nazoratida. Huquq va burch. 2014-y. 11-son.

¹⁹ Качалов В.И., Качалов О.И. Прокурорский надзор в Российской Федерации. М.: Норма, 2001. С. 72.

²⁰ Качалов В.И., Качалов О.И. Прокурорский надзор в Российской Федерации. М.: Норма, 2001. С. 72.

²¹ Березовская С.Г. Прокурорский надзор в советском государственном управлении. М.: Госюриздат, 1954. С.95; Прокурорский надзор: учебник/ под ред. Е.Ю. Винокурова. М.: Юрайт, 2010. С. 114.

²² Веретеников В.И. Очерки истории генерал-прокуратуры в России. - Харьков, 2001. - 27 с..

²³ Виноградов О. Прокуратура в системе органов государственной власти // Законность, 2000. -№4. - С. 2-4.

²⁴ Терегубов М. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края // Москва, 2003.

²⁵ Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? 2019.

²⁶ Рыжаков А.П. Правоохранительные органы. Учебник.-М.: Контракт, Инфра-М, 2001.-С.1-2.

²⁷ Семенов В.М. Правоохранительные органы: Дарслик. – М.: Юрид. лит., 1991. – В. 28-29.

²⁸ Раянов Ф.М. Проблемы теории государства и права. М., «Право и государство», 2003, 294-бет.

²⁹ Бороцин С.В. Правоохранительные органы Россия.-М., 1996. - С.9-10.

samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, prokuror nazorati fani bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari va fan dasturlarini tayyorlashda ham ushbu taklif va xulosalarga tayanish ijobiy natija beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 6 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 95 betni tashkil etadi.

I BOB. QONUNLAR IJROSI YUZASIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARI VA ULARNING NAZARIY-HUQUQIY AHAMIYATI.

1.1. Prokuror tekshiruvlari tushunchasi, maqsadi va vazifalari.

Prokuror tekshiruvlarini qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalarini tadqiq etar ekanmiz, avvalambor, prokuror tekshiruvi tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunib olishimiz va uni o'tkazishning asosiy maqsadi hamda vazifalarini aniqlab olishimiz lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, – “Qonunchilik bazasini har tomonlama mustahkamlash va qonunlarni so'zsiz ijro etish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik huquqiy davlatni rivojlantirish, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uning ishonchli himoya qilinishini ta'minlashda prokuratura organlarining roli katta”³⁰.

“Prokuratura organlarining faoliyati mamlakatimizda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishini tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishning muhim mexanizmidir. Prokuraturaning maxsus huquqiy maqomi – mamlakat hududida Konstitutsiya va qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni olib borish funksiyasi prokuratura organlarining qonuniylikni ta'minlash faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim organ ekanligidan dalolat beradi”³¹.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni 1-moddasiga muvofiq, prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi uchun nazorat o'rnatadi. Mazkur Qonunning 2-moddasiga ko'ra esa, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning

³⁰Mirziyoyev.Sh.M. Prokuratura xodimlari bilan uchrashuvdagi nutqidan // Ma'lumot olingan internet manbasi – <https://president.uz/uz/lists/view/178>.

³¹Otaxonov F. Prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi va qonuniylikni ta'minlashdagi roli. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi. №1 (49) 2022-yil.

qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir.

Ushbu vazifalarni samarali hamda salmoqli amalga oshirish maqsadida sifatli prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning ahamiyati juda ham kattadir.

Ta’kidlash joizki, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasi aynan qonunlar ijrosi bo‘yicha prokuror tekshiruvlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unga asosan, qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to‘g‘risidagi arizalar va boshqa ma’lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko‘rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Prokuror tekshiruvining mazmun-mohiyatini yoritib berish uchun, avvalo, tekshiruv tushunchasi uning turlari va maqsadiga alohida e’tibor qaratib o‘tish lozim deb hisoblaymiz.

Tekshiruv – nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan muayyan korxonalar, muassasa yoki tashkilotlarda qonunlar va ularni faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan bir yo‘la nazorat.

Tekshiruvning quyidagi turlari mavjud:

- Kompleks tekshiruv;
- Moliya xo‘jalik faoliyati tekshiruvi;
- Rejali tekshiruv;
- Rejadan tashqari tekshiruv;
- Qisqa muddatli tekshiruv;
- Qarama-qarshi tekshiruv;
- Nazorat tartibidagi tekshiruv.

Kompleks tekshiruv – bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruv.

Moliya xo‘jalik faoliyati tekshiruvi(reviziya) – Soliq va valyuta qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik subyektlarining buxgalteriya, moliyaviy, statistik, bankka oid va boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslash.

Rejali tekshiruv – Respublika nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik (chorak) tekshiruv rejasiga kiritilgan tekshiruv.

Rejadan tashqari tekshiruv — nazorat organlari tomonidan qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va holatlarda amalga oshiriladigan, yillik (chorak) tekshiruvlar rejasiga kiritilmagan tekshiruv (jumladan qisqa muddatli).

Qisqa muddatli tekshiruv — nazorat organlari tomonidan bir ish kuni davomida o‘tkaziladigan va xo‘jalik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan tekshiruv (kechki va (yoki) tungi vaqtda (tekshiruv kunidagi soat 18-00 dan keyingi kunning tonggi soat 6-00 gacha) ishlaydigan xo‘jalik subyektlarida qisqa muddatli tekshiruv boshlangan vaqtidan to sakkiz soat davomida amalga oshiriladi).

Qarama-qarshi tekshiruv — operatsiyalar bir xilligi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan hamda turli xo‘jalik subyektlarida yoki bir xo‘jalik subyektlarining turli bo‘limlarida bo‘lgan hujjatlarni solishtirishdan iborat tekshiruv.

Nazorat tartibidagi tekshiruv — nazorat organlari tomonidan avvalgi tekshiruvda qayd etilgan qonunbuzarliklarning xo‘jalik subyektlari tomonidan bartaraf etilgani ustidan o‘tkaziladigan tekshiruv.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tekshiruv turlaridan rejali tekshiruv, kompleks hamda nazorat tartibidagi tekshiruvlari aynan prokuratura organlarining nazorat faoliyatiga taalluqlidir.

“Prokuror nazorati nazariyasi va amaliyotida qonunlar ijrosini prokuror tomonidan tekshirishning bir qator turlari mavjud. Xususan, prokuror nazorati amaliyotida rejaviy va joriy tekshiruv, maqsadli (predmetli) va kompleks

tekshiruv, mufassal tekshiruv, hamkorlikdagi tekshiruv, nazorat tartibidagi tekshiruv kabi turlari o‘tkazib kelinadi”³².

Ishtirokchilar doirasiga ko‘ra prokuror tekshirishlarini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- yakka prokuror tomonidan;
- bir guruh prokurorlar tomonidan;
- mutaxassislar ishtirokida prokuror (prokurorlar) tomonidan o‘tkaziladigan tekshirishlar. Bu tasnif katta metodologik ahamiyatga ega³³.

Yakka prokuror tomonidan amalga oshiriladigan prokuror tekshiruvi, asosan, murakkab bo‘lmagan ishlar bo‘yicha muayyan bir qonunning ma’lum tekshiruv obyektida aniq va bir xilda ijro etilishi yuzasidan o‘tkaziladi.

Bizningcha, bir necha prokurorlar tomonidan amalga oshiriladigan prokuror tekshiruvlari murakkab, ancha ahamiyatli bo‘lgan ishlar yuzasidan o‘tkaziladi. Misol uchun, murakkab, ancha ahamiyatli bo‘lgan ishlar deganda davlat, jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazayotgan, darhol bartaraf etilishi talab qilinadigan, aks holda ko‘pchilikning manfaatlariga zarar yetadigan qonunbuzilishi holatlari tushunilishi kerak. Bunda ko‘pchilik deganda ikki yoki undan ortiq shaxslar nazarda tutilmoqda.

Mutaxassislar ishtirokida o‘tkaziladigan prokuror tekshiruvlariga prokurorning talabi bilan tekshirishga mutaxassislar jalb etiladi. Prokuror tekshiruv o‘tkazar ekan, turli sohalarga doir, jumladan, tibbiyot, buxgalteriya, moliya, qurilish kabi o‘zi yaqindan tanish bo‘lmagan sohalarga oid masalalarga duch keladi. Tabiiyki, bunday hollarda muayyan kasb, bilim sohasida maxsus bilimga ega bo‘lgan shaxslarning bilimidan foydalanish zarur bo‘ladi. Prokurorning qonuniy talabi bilan prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan mutaxassislar muayyan masalada sohaga oid o‘z bilimiga asoslanib fikr bildiradi yoki tekshirish, taftish

³² Komilov A.B. Qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvini qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari // Central Asian academic journal of scientific research, 2021, - 229-235-b

³³ О.Н. Коршуновой. Прокурорская проверка. Методика и тактика проведения. 2019. С-11.

o'tkazish ularga topshiriladi. Mutaxssislarning fikri, taftish o'tkazish natijasida tuzgan dalolatnomalari prokuror uchun majburiy emas. Prokuror yetarli asoslar bo'lganda ularni inobatga olmasligi hamda ular asosida prokuror nazorati hujjatlarini qo'llamasligi ham mumkin.

Prokuror tekshiruvlarini o'tkazishda mutaxssislarni jalb etish bilan bog'liq huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 6 va 22-moddalarida aks etgan. Jumladan, mazkur qonunning 22-moddasi birinchi qismi, ikkinchi xatboshisiga ko'ra, prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida: davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun *mutaxassislar ajratishni talab qilishga* haqlidir.

Shu kabi, mazkur qonunning 6-moddasi birinchi qismiga binoan, prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, *mutaxassis ajratish*, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura tekshiruvlarida mutaxassislarning ishtiroki masalalarini huquqiy tartibga solinishida ham muammolar mavjud. Prokuratura to'g'risidagi qonun prokurorlarning nazorat choralarini amalga oshirishda yuzaga kelgan masalalarni aniqlashtirish uchun mutaxassislarni jalb qilish huquqini, shuningdek prokuratura tekshiruvi doirasida ularning ekspert-tahliliy funksiyalarini ta'minlaydi.

Mutaxassislarni prokuratura tekshiruvlariga jalb qilish institutining mohiyati

prokuratura nazorati sohasidagi yetakchi olimlarning A.D.Berenzona³⁴, A.Y.Vinokurova³⁵, V.V.Dolejana³⁶ va boshqalarning nashrlarida batafsil ko‘rib chiqilgan.

Biroq, ushbu tadqiqot ishida mutaxassislarni prokuratura tekshiruvlariga jalb qilish amaliyotida yuzaga keladigan muammolarga to‘xtalib o‘tamiz.

Prokuror tekshiruvlariga mutaxassislarni jalb qilish bilan bog‘liq muammolar quyidagilarda ko‘rinadi:

ekspert-tahliliy yordamning sifatsizligi;

prokuror tomonidan tekshirish natijalariga jalb qilingan mutaxassislarning qiziqmasligi, manfaatdor emasligi.

“Prokuratura tekshiruvlari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan fikr (xulosalar) shuni ko‘rsatadiki, ular har doim ham haqiqiy holatlarga mos kelmaydi va qonun buzilishlari mavjudligini tasdiqlovchi ma’lumotlarni to‘liq va asosli tavsiflamaydi.

Buning asosiy sabablari prokuratura tekshiruvlarida ishtirok etayotgan mutaxassislarda moddiy qiziqishlarining yetishmasligi, ularning yuqori ish yuki mavjudligi, ya’ni ko‘pincha bitta mutaxassis bir vaqtning o‘zida bir nechta prokuratura tomonidan tekshiruvlar o‘tkazishda ishtirok etadi, shu bilan birga ish beruvchi tomonidan ish joyida rasmiy vazifalarni bajarishdan ozod qilinmaydi”³⁷.

Tekshiruvga jalb qilinadigan mutaxassislarning o‘z sohasining ustasi emasligi, tegishli maxsus bilimlarga ega emasligi prokuror tekshiruvlarining sifatli o‘tishiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday holat kelib chiqmasligi uchun tekshiruv o‘tkazayotgan prokuratura organlarining mas’ul xodimi tomonidan mutaxassislarning tegishli sohada maxsus bilimga ega ekanligini, muayyan

³⁴ Берензон А.Д., Гудкович Ю.Д. Прокурорский надзор за исполнением законов органами вневедомственного контроля и взаимодействие прокуроров с ними при осуществлении общего надзора. М.: Юрид. лит., 1976.

³⁵ Винокуров А.Ю. Привлечение прокурором специалиста при проведении проверки исполнения закона // Администрат. и муницип. право. 2017. № 10

³⁶ Долежан В.В. Проблемы компетенции прокуратуры : дис.... д-ра юрид. наук. М., 1991.

³⁷ Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? 2019. С.51 – 52.

muddatli ish tajribasiga ega ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni (Misol uchun, oliy ma'lumotga egaligi to'g'risidagi diplomni yoki ish stajini aniqlash uchun mehnat daftarchasini) tekshirib olish tartibini ommalashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Prokuror tomonidan tekshirishlarga jalb qilingan mutaxassislarning manfaatdor emasligi ham prokuror tekshiruvlarini samarali o'tkazishdagi dolzarb masalalardan biridir.

Prokuror tekshiruvlariga jalb etiladigan mutaxassislar muayyan korxonada, muassasa yoki tashkilotlarda mehnat shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. Ish beruvchi oldiga esa prokuror tekshiruviga mutaxassis ajratish bo'yicha prokurorning qonuniy talabi qo'yiladi. Amaliyotda muammo shuki, ish beruvchi tomonidan mutaxassisga ish haqini mutaxassis prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan vaqtini chegirib tashlab, ish vaqtiga qo'shib hisoblamasdan to'lash hollari uchray turadi. Bunga asos sifatida esa mutaxassis prokuror tekshiruvlariga jalb etilib, ish joyida bo'lmaganligi hamda mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib borayotgan korxonada manfaati uchun harakat qilmaganligi keltiriladi. Tabiiyki, bunday holatga avval duch kelgan mutaxassis keyingi safar prokuror tekshiruviga jalb etilganda prokuror tekshiruvlariga doir vazifalarini chin ko'ngildan bajarmaydi, vazifani sifatsiz bo'lsada tezroq bajarib topshirishni xohlaydi. Bu esa tekshiruvlarini samarali hamda sifatli bo'lmasligiga, qonunbuzilish holatlari aniqlanmasligiga va bartaraf etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday holatlarni oldini olish uchun prokuror tekshiruvlariga jalb etiladigan mutaxassislarga mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib boradigan ish joyidagi ish haqini muqarrar saqlab qolishdan tashqari qo'shimcha haq to'lash tartibi ham joriy etilsa, mutaxassislarning manfaatdorligi oshgan bo'lar edi.

Yuqoridagi prokuror tekshiruvlarida mutaxassislar ishtiroki bilan bog'liq muammoli holatlarni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

Prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan mutaxassislar ushbu muddat davomida asosiy ish joyidagi vazifalardan ozod etilishi;

Mutaxassislarga tekshirishlarda ishtirok etgani uchun qo‘chimcha haq to‘lash;

Bila turib prokuror tekshiruvlari uchun qonunbuzilish holatlari to‘g‘risida noto‘g‘ri xulosa taqdim etganlik uchun mutaxassislarning javobgarligi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy normalarni takomillashtirish, jumladan, javobgarlikni yanada kuchaytirish. Bu qonunbuzilish holatlari haqida noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishining oldini oladi.

Har qanday tekshiruvni boshlashdan avval tekshiruvchi quyidagilarni bajarishi shart:

- *Tadbirkorni tekshiruv maqsadlari va shartlari bilan tanishtirishi;*
- *Qonunchilikda belgilangan barcha hujjatlarni taqdim etishi;*
- *Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobini to‘ldirishi.*

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasiga ko‘ra, prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o‘z vakolatlari doirasida:

vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko‘rishga, tekshirishlar o‘tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylikning holati to‘g‘risidagi va uni ta’minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma’lumotlarni talab qilishga;

davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o‘tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o‘tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

mansabdor shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir.

Qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunda hamda boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rishga majbur.

Mazkur moddada keltirilgan prokurorning vakolatlari prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish davomida prokuror tomonidan foydalaniladi. Shu bois ularning ahamiyati va mazmum mohiyatini kengroq doirada yoritishni lozim deb hisoblaymiz.

“Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliksiz kirish” deganda prokuror tekshiruvini o‘tkazuvchi xodim tomonidan tekshirish o‘tkaziladigan obyekt hududiga hech qanday to‘siqsiz, qarshiliksiz kirish tushuniladi. Bunda prokuratura xodimi o‘z shaxsini, lavozimini tanishtiradi, xizmat guvohnomasini ko‘rsatadi. Tekshirish o‘tkaziladigan tashkilotning mansabdor shaxsi yoki boshqa vakolatli xodimini tekshirish o‘tkazish maqsadi, asoslari hamda tekshirish rejasi bilan tanishtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasi birinchi qismi 1-xatboshisidagi “idoralar” deganda nima tushunilishi lozim ekanligiga ham oydinlik kiritib o‘tish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2014-yil 28-fevraldagi 53-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish” Qoidalarining 2-bandiga muvofiq, idoralar deganda vazirlik yoki davlat qo‘mitasi hisoblanmagan, ijro etish va (yoki) farmoyish berish funksiyalari, shuningdek idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqi berilgan respublika davlat boshqaruv organlari yoxud maxsus vakolatli boshqaruv organlari tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrda PF-3358-sonli “Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni 1-bandiga muvofiq, vazirliklar, davlat

qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar, shuningdek ular huzurida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari respublika davlat boshqaruvi organlari jumlasiga kiradi. Mazkur qoidadan anglashiladiki, hukumat huzurida tashkil etilgan inspeksiyalar, markazlar ham respublika davlat boshqaruv organlari sanaladi.

“Idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o‘tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilish” jumlasidan ko‘rinadiki, tekshirishlar tuzilma nuqtai nazaridan yana 2 turga, ya’ni idoraviy va noidoraviy tekshirishlarga bo‘linadi.

Tekshirish o‘tkazish uchun mutaxassislar ajratish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida ham belgilangan. Unga ko‘ra, prokurorning mutaxassis ajratish to‘g‘risidagi o‘z vakolatlari doirasida qo‘yayotgan talabini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning III bo‘lim, Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat nomli 4-bobining 31-moddasi birinchi qismi 5-xatboshiga ko‘ra, prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida ushlab turish, qamoqda saqlash, jazoni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etuvchi organlar hamda muassasalar ma’muriyatlarining buyruqlari, farmoyishlari va qarorlari, tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunga muvofiqligini *tekshirishga* haqli ekanligi belgilangan.

Mazkur moddaning ikkinchi qism, 2-xatboshisiga binoan, prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida ushbu shaxslarga yoki ularning *yaqin qarindoshlariga* ruhiy, psixologik,

jismoniy ta'sir ko'rsatilishi yoki boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart.

Ushbu normada "yaqin qarindoshlar" tushunchasi ishlatilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasi birinchi qismiga ko'ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Atamalarning huquqiy ma'nosi" nomli sakkinchi bo'limida "yaqin qarindoshlar" tushunchasiga ta'rif mavjud. Unga ko'ra, qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar yaqin qarindoshlar hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisida "yaqin qarindoshlar" tushunchasining o'rniga "yaqin kishilar" tushunchasi ishlatilgani ma'qul deb hisoblaymiz. Negaki yaqin kishilar tushunchasi yaqin qarindoshlardan ko'ra kengroq shaxslar doirasini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 12-bandi mazmuniga asosan, yaqin kishilar qatoriga, shaxsning yaqin qarindoshlaridan tashqari, u bilan alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslar ham kirishi mumkin. Shuningdek, amaliyotda ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslar, ularning yaqin qarindoshlaridan tashqari *ular bilan shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarga* ham ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatilishi yoxud boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatilishi hollari uchrab turadi. Chunki ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslar bilan yaqin munosabatda bo'lgan boshqa shaxslarga salbiy ta'sir ko'rsatilishi

ularning ruhan qiynalishiga, ma'naviy zarar ko'rishiga olib keladi. Hatto ayrim hollarda shaxs uchun u bilan alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarning qadri uning yaqin qarindoshlariga nisbatan yuqoriroq bo'ladi hamda bunday shaxslar uchun ko'proq qayg'uradi.

Qolaversa, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslarga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar ham aynan ularning yaqin qarindoshlari singari *alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarga* tazyiq o'tkazishi yanada ta'sirliroq bo'lishini biladi. Shuningdek, "yaqin kishilar" tushunchasi alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan boshqa shaxslarni ham qamrab olishini inobatga olib, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisi quyidagi tarzda bayon etilishini taklif qilamiz:

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarni ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o'z vakolatlari doirasida:

"ushbu shaxslarga yoki ularning yaqin kishilariga ruhiy, psixologik, jismoniy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatilishi yoki boshqacha tazyiq ko'rinishida ta'sir ko'rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart".

Garchi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda prokuror tekshiruvlari tushunchasi bir necha bor qo'llanilgan bo'lsada, prokuror tekshiruvlari o'zi nima ekanligi belgilanmagan, unga ta'rif keltirilmagan. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini bilmasdan turib, uni o'tkazish asoslari va tartibini belgilash mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Shu boisdan, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda "prokuror tekshiruvi" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq va to'liq ochib beradigan ta'rif keltirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Prokuror tekshiruvlari qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini o‘rnatish va qonunbuzilishlarini aniqlashning muhim instrumenti hisoblanadi³⁸.

Prokuror tekshiruvlari “umumiy nazorat” faoliyatining majburiy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, prokuror tekshiruvi D.Belousova ta’kidlaganidek, faqatgina qonunbuzilish holatlarini aniqlashninggina muhim belgisi emas. Sababi prokuror tekshiruvi natijasida nafaqat qonunbuzilishi *aniqlanadi*, balki tegishli prokuror nazorati hujjatlari orqali uni *bartaraf etish* choralari ham ko‘riladi. Misol uchun, prokuror qurilish sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o‘tkazishni boshlab, tegishli bilimga ega bo‘lgan mutaxassislarni tuman tibbiyot birlashmasidagi qurilish-ta’mirlash ishlarining sifati, unga davlat budjeti tomonidan ajratilgan mablag‘lar hamda uning amalda sarflanish darajalarini aniqlash uchun jalb etdi va bu orqali qonunbuzilishlarini aniqladi.

Prokurorning prokuror tekshiruvidagi harakatlari shu bilan yakunlanmaydi. Balki endi prokuror aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy, ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorlar qabul qiladi, qilmishida jinoyat tarkibi bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atadi. Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida qonun buzilishini bartaraf etish vakolatiga ega bo‘lgan tashkilotga yoki mansabdor shaxsga taqdimnomalar kiritadi, qonunga zid bo‘lgan hujjatlarni bekor qilish yoki qonunga muvofiqlashtirish yuzasidan uni qabul qilgan tegishli tashkilot yoki uning yuqori tuzilmasiga protestlar keltiradi. Zarur deb topilganda, yana xuddi shunday huquqbuzarliklar takrorlanishining oldini olish maqsadida mansabdor shaxslar yoki fuqarolarni qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbuzarlik sodir etilganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

³⁸ Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? 2019. С.56

Huquqshunos olimi N.R.Koreshnikova ta'kidlab o'tganidek, prokuror tekshiruvlari bir tomondan vakolatli mansabdor shaxslarning harakatlarini baholash, qonunbuzilishini hamda ularning *ustav hujjatlarida aks etgan vakolatlariga aloqador* ravishda sodir etilgan huquqbuzarliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Bizningcha, yuqoridagi fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi. Chunki prokuror qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat o'rnatar ekan, nafaqat ustav vakolatlari bo'yicha, balki ustavdan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa qonun hujjatlarida aks etgan qoidalar ijro etilishi nuqtai nazaridan ham tekshiruvlar o'tkazadi. Shu bois prokuror tekshiruvlarining doirasi ancha keng ekanligini e'tirof etish lozimdir.

Prokuror tekshiruvining quyidagi belgilari ajralib turadi:

- ❖ qonuniylik, ya'ni prokuror tekshiruvlari qonun asosida amalga oshiriladi va uning ijrosiga qaratiladi;
- ❖ prokurorning tekshiruvlari imperativ ahamiyatga ega bo'ladi;
- ❖ prokuror tekshiruvlari obyektiv bo'lib, mustaqil ravishda amalga oshiriladi, ya'ni prokuror tekshirish faoliyatini olib borishda hech qanday fikrga bog'liq qilib qo'yilmaydi, uning tekshirishlari muayyan maqsadga qaratilgan bo'ladi va faqat qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi;
- ❖ qonunda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi;
- ❖ Ochiqlik asosida amalga oshiriladi.

Shu kabi ayrim mualliflar fikricha, prokuror tekshiruvi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati paytida qo'llaniladigan qoida buzilishini aniqlash *vositasidir*³⁹.

Mazkur nuqtai nazarni tahlil qilgan holda shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, prokuror tekshiruvi, bizningcha, qoida buzilishini aniqlash *vositasi* emas, balki qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan *faoliyatdir*. Chunki prokuror qonunbuzilish holatlarini butun prokuror tekshiruvi orqali emas, balki

³⁹ Качалов В.И., Качалов О.И. Прокурорский надзор в Российской Федерации. М.: Норма, 2001. С. 72.

prokuror tekshiruvi faoliyati davomida qo‘llaydigan prokuror nazorati hujjatlari, qolaversa, prokuror talablari orqali aniqlaydi. Demak, qonunbuzilishini aniqlash vositasi sifatida “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning V bo‘lim, 37-moddasida sanab o‘tilgan prokuror nazorati hujjatlarini hamda ushbu Qonunning 6-moddasida belgilangan prokurorning qonuniy talablarini, qonunbuzilishlarini aniqlash va bartaraf etish faoliyati sifatida esa prokuror tekshiruvini e’tirof etishimiz joiz.

Shuningdek, boshqa huquqshunoslar prokuror tekshiruvini quyidagicha izohlaydilar:

Prokuror tekshiruvi nazorat faoliyati bo‘lib, qonunlarning buzilishini aniqlash usuli sifatida “prokuratura nazoratining huquqiy vositalari” tushunchasini qamrab oladi va ushbu vositalar orqali nazoratni qonunda nazarda tutilgan harakatlar orqali amalga oshiradi⁴⁰.

Fikrimizcha, prokuror tekshiruvi yuqorida ta’kidlanganidek faqatgina qonunlar buzilishini aniqlash usuligina bo‘lib qolmasdan, tegishli prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llash orqali huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish vositalarini o‘zida qamrab oladi.

Prokuratura nazorati bo‘yicha zamonaviy o‘quv adabiyotlarda esa, prokuror tekshiruvi odatda muammoni hal qilish vositasi sifatida tushuniladi yoki qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish usuli deb hisoblanadi⁴¹.

Yuqoridagi barcha fikrlarni inobatga olib, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” ga quyidagicha ta’rif keltirilishini taklif qilamiz:

“Prokuror tekshiruvi bu – prokuratura organlari tomonidan muayyan qonunchilik hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan asoslar, muddatlar hamda tartiblarda davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda o‘tkaziladigan tekshiruvdir”.

⁴⁰ Березовская С.Г. Прокурорский надзор в советском государственном управлении. М.: Госюриздат, 1954. С.95; Прокурорский надзор: учебник/ под ред. Е.Ю. Винокурова. М.: Юрайт, 2010. С. 114.

⁴¹ Прокурорский надзор: учебник/ под ред. Е.Ю. Винокурова. М.: Юрайт, 2010. - 114 с.

Prokuror tekshiruvlari huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish faoliyati sanaladi. Prokuraturaning funksiyalariga qarab prokuror tekshiruvlari quyidagilarga bo‘linadi:

- ❖ prokuratura nazoratini amalga oshirish tartibida o‘tkaziladigan tekshiruvlar;
- ❖ prokuratura nazorati ostida bo‘lmagan tekshiruvlar (misol uchun: jismoniy va yuridik shaxslar sud ishlarini kassatsiya tekshiruvlari)⁴².

Prokuror tekshiruvlari ham muayyan natijaga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Ya’ni har qanday prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning muayyan maqsadi mavjud bo‘ladi. Prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- qonun buzilishlarini aniqlash;
- qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish;
- huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini hamda unga imkon berayotgan shart-sharoitlari aniqlash;
- huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etish;
- boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish.

Prokuror tekshiruvlarining umumiy maqsadi esa qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish hisoblanadi. Bu esa, albatta, qonunbuzilishlarini aniqlash hamda tegishli prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasida qonunlar ijrosi ustidan nazorat predmeti belgilab qo‘yilgan. Mazkur nazorat predmetidan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvining maqsadi anglashiladi.

Ushbu moddaga ko‘ra, tegishli tuzilmalar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga

⁴² Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов. 2010.С.25-26.

muvofigligi nazorat predmeti hisoblanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, *qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishiga hamda qabul qilinayotgan hujjatlarning Konstitutsiyasi va qonunlarga muvofigligiga* erishish prokuror tekshiruvlarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Qonunlarning ijro etilishi deganda qonunda belgilangan vazifa, funksiya hamda majburiyatlarning xuddi qonun hujjatlarining o'zida belgilanganidek bajarish va unga og'ishmay amal qilish tushuniladi.

Qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofigligi deganda esa, har qanday qabul qilinayotgan hujjat o'zidan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatga mutanosib bo'lishi hamda u asosda va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinishi lozimligini anglatadi. Bu o'z navbatida qonun ustuvorligi prinsipining mazmuniga mosdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Konstitutsiyaning 16-moddasiga ko'ra esa, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Shu bilan bir qatorda, 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O'RQ-682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari qaratilgan asosiy maqsadlar O'zbekiston Respublikasining oliy

yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlari hisoblanadigan Konstitutsiya va Qonunlarida ham umummajburiy huquqiy normalar sifatida aks ettirilgan.

1.2.Prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish asoslari hamda ahamiyati

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘z-o‘zlarini boshqarish organlari, jamoa uyushmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar, vazirliklarning, davlat qo‘mitalarning, idoralarning harbiy qismlari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini va ular tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya va qonunlarga mosligini nazorat qilish va ta‘minlash prokuratura idoralarining alohida e‘tibordagi va ustuvor yo‘nalishi deb baholanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasining mazkur yo‘nalish bo‘yicha ma’sul xodimlari, viloyat, unga tenglashtirilgan, shaharlar, tumanlar, tumanlararo va ixtisoslashtirilgan boshqa prokuraturalar prokurorlari o‘z hududlaridagi qonunchilik ahvoli yuzasidan batafsil ma’lumotga ega bo‘lishlari, qonunchilikni ta‘minlash borasidagi faoliyatlarini aynan shu ma’lumotlar asosida olib borishlari kerak. Bu faoliyatini amalga oshirish borasida, birinchidan, tegishli nazorat idoralari va boshqa davlat idoralardan joylardagi qonunchilik ahvoli, iqtisod sohasida o‘tkazilayotgan islohotlarning jarayoni, ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar, ularning borish dinamikasi va to‘sqinlik qilayotgan faktorlar yuzasidan tegishli ma’lumotlarni talab qilib olinishi; ikkinchidan, to‘plangan ma’lumotlarni to‘liq va chuqur tahlil qilish, ular orasidan prokuror ta’sir choralari qo‘llanishi talab qilinayotgan konkret yo‘nalishlar va tarmoqlarni aniqlash zarur.

Qonunlar ijrosini tekshirishning asosiy omili sifatida tekshiruvlarning aniq va yuqori saviyada rejalashtirilishini keltirish mumkin. Boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyatlar, nazorat idoralari, mansabdor shaxslarning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol etuvchi noqonuniy huquqiy aktlarini aniqlash va ularga protest keltirish masalasini hal etish umumiy nazorat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Prokurorlarning bu faoliyatiga sistemali va doimiy xarakter berish uchun chiqarilayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari,

Vazirlar Mahkamasi qarorlariga mosligini bir kvartalda kamida bir marotaba tekshirilishini tashkil etish zarur. Bu borada alohida e'tiborni: Hokimlar, Respublika vazirliklari rahbarlari, idoralar, konsernlar, korporatsiyalar, assotsiatsiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, viloyat, shahar va tuman organlari normativ hujjatlarining qonuniyligiga; Davlat idoralarining rahbarlari va mansabdor shaxslarining fuqarolarga ma'muriy jazo qo'llash haqidagi qarorlarining qonuniyligiga qaratilishi shart.

Noqonuniy aktlar protest keltirish yo'li bilan bekor qilinishi yoki qonunga muvofiqlashtirilishi lozim. Protest tegishli mansabdor shaxs yoki idora tomonidan rad etilgan holda belgilangan 1 oylik muddat ichida sudga protestni rad etish haqidagi qaror noqonuniy ekanligi tan olinishini talab qilib ariza kiritilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi aynan qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlariga bag'ishlangan bo'lib, unga asosan, qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Yuqorida qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlariga bag'ishlangan moddada belgilab qo'yilgan normalar anchayin tor doirada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni unda prokuror tekshiruvlarini o'tkazish uchun asoslar to'la va qat'iy tartibda aks ettirilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 5-dekabrdagi "Ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini yanada mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 172-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan *Namunaviy Reglamentda* prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning kengroq doiradagi asoslari belgilab qo'yilgan.

Huquqshunos olim **B.X.Po'latov** ham, "*O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida ish Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari bilan ham tashkil etiladi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "Prokuratura*

to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga asoslanadi"⁴³, deb qayd etgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan Bosh prokuror buyrug'iga asosan, quyidagi asoslar bo'lganda qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlari o'tkazilishi mumkin:

- Tarkibiy tarmoqlar ish rejalari;
- Hay'at qarorlari;
- Rahbariyat ko'rsatmalari;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;
- Qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar;
- Ommaviy-axborot vositalarining xabarlari.

Yuqorida keltirilgan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslarining mazmunini tushunib olish uchun ularning har biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tarkibiy tarmoq ish rejalari. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 5-dekabrda "Ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini yanada mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 172-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan *Namunaviy Reglamentning 16-bandiga asosan*, Bosh prokuratura ish rejalari qonuniylik ahvoli jinoyatchilik tahlili asosida har olti oyga mo'ljallangan holda tuziladi.

Bosh prokuratura ish rejasining loyihasi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan tarkibiy tarmoqlar, Departament va Byuroning takliflari asosida tayyorlanadi.

Ish rejalarga takliflar Bosh prokuror o'rinbosarlari bilan kelishilgan va asoslantirilgan bo'lishi unda tadbirlar ijrosiga mas'ul va ishtirok etishi lozim bo'lgan tarkibiy tarmoqlar, tadbirning ijro muddati, natijasini amalga oshirish shakllari va boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

⁴³ Qarang: **Po'latov B.X.** Inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ta'minlashda prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari // "Mustaqillik yillarida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yangicha asoslarda shakllantirish" mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya materiallari. (29-noyabr 2007-yil. Toshkent) - T.: TDYuI, 2007. – B. 27.

Hay'at qarorlari. "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 5-dekabrda "Ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini yanada mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 172-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan *Namunaviy Reglamentning 20.8-bandiga asosan*, hay'at qarori loyihasida ko'rilayotgan masala bo'yicha tahlil, asosiy xulosalar, aniqlangan qonunbuzilishi holatlari va kamchiliklarni bartaraf etish, huquqni qo'llash amaliyoti va prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar aks ettiriladi. Mazkur reglamentning 20.15-bandiga muvofiq, hay'at muhokamasi yakuni bo'yicha hay'at a'zolari tomonidan hay'at qarori loyihasiga fikr bildiriladi. Ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan hay'at qarori ko'pchilik ovozi bilan, yakuniy qaror esa tegishli hay'at majlisida raislik qiluvchi tomonidan qabul qilinadi.

Zarur hollarda hay'at qaroriga muvofiq tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar tayyorlanadi va Bosh prokuratura rahbariyatiga imzolash uchun taqdim etiladi. Shuningdek, reglamentning 20.18-bandiga binoan, hay'at qaroridan kelib

chiqadigan vazifalar tezkor yig'ilishlarda muhokama qilinib, natijasiga ko'ra, xodimlarning vazifalari belgilanadi, zarur hollarda, tegishli chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqiladi va ijrosi ustidan nazorat ta'minlanadi.

Demak, hay'at qarori asosida prokuror tekshiruvlari o'tkazilganda ham, uning ijrosi ustidan yuqori turuvchi prokuratura tomonidan nazorat ta'minlanadi. Jumladan, hay'at majlisi qarori va shu asosda qabul qilingan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarni belgilangan muddatda, to'liq va sifatli ijro etish yuzasidan mas'uliyat Bosh prokurorning sohaviy o'rinbosarlari, tarkibiy tarmoqlar, Departament boshliqlari va Byuro direktori, viloyat prokurorlari zimmasiga yuklatiladi.

Rahbariyat ko'rsatmalari. Bosh prokuraturada xizmatda foydalaniladigan hujjatlar, qoida tariqasida, quyidagi turlarga bo'linadi:

- tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar;
- ijrosi barcha prokuratura, Departament va Byuro organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar (keyingi matnda - ijrosi barcha prokuratura organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar);
- axborot-uslubiy va tahliliy xususiyatidagi hujjatlar;
- yozishma hujjatlar.

Tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar toifasiga:

- Bosh prokurorning buyruq, **ko'rsatma** va farmoyishlari;
- Bosh prokurorning buyrug'i bilan tasdiqlangan reglament, nizomlar, yo'riqnomalar, tartiblar, vaqtincha tartiblar, kasb odoynomasi, prokuratura organlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa va funksiyalarni amalga oshirish tartibini belgilovchi boshqa hujjatlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat va boshqa davlat organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan qo'shma buyruq, farmoyish, **ko'rsatma** va boshqa hujjatlar kiritiladi.

Bundan tashqari, ijrosi barcha prokuratura organlari uchun umummajburiy bo'lgan hujjatlar toifasiga Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolangan:

- muayyan masala bo'yicha aniq talablar qo'yilgan, bajarish shakli va axborot berish muddati qayd qilingan topshiriq yoki **ko'rsatma** ham kiradi.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, prokuror tekshiruvini o'tkazishga asos bo'ladigan *rahbariyat ko'rsatmalari* tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjat yoki umummajburiy bo'lgan hujjat sifatida qabul qilinadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrdagi 165-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularning shaxsiy qabulini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaning 1.3-bandiga ko'ra, *murojaat* jismoniy va yuridik shaxslarning og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bayon etilgan individual yoki jamoaviy arizasi, taklifi yoki shikoyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi O'RQ-445-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasiga ko'ra, arizalar, takliflar va shikoyatlar murojaatlarning turlari hisoblanadi. Shuningdek, murojaatlar og'zaki, yozma yoxud elektron shaklda bo'lishi mumkin.

Qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar. Mansabdor shaxslar, fuqarolar, korxonalar, muassasa yoki tashkilotlarning yozma, rasm, audio, video yoki boshqa ko'rinishdagi, qonunbuzilishi holatlari to'g'risida muayyan faktik holatlarni tasdiqlovchi asoslar qonunbuzilishi haqidagi ma'lumotlar hisoblanishi mumkin.

Ommaviy-axborot vositalarining xabarlari. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi O'RQ-78-sonli "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasiga asosan, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-,

kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. Mazkur vositalar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi buzilganligi va (yoki) buzilayotganligi to‘g‘risidagi prokuror tekshiruvini o‘tkazishga asos bo‘ladigan axborot yoki bildirish yuqoridagi buyruqda nazarda tutilgan ommaviy-axborot vositalarining xabarlaridir.

Huquqshunos O.N.Korshunovoy ta’kidlaganidek, qonunda nazarda tutilgan har bir muayyan holatda prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishga mas’ul prokuratura xodimi, avvalambor, tekshiruv o‘tkazish asoslari mavjudligini aniqlashi kerak⁴⁴.

Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvarda qabul qilingan 2202-I-sonli “Prokuratura idoralari to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasi, ikkinchi qismiga ko‘ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshirishi *qonun buzilishi haqidagi ma’lumotlar asosida* hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko‘rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi belgilangan⁴⁵. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan ma’lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma’lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma’lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo‘ladi. Ammo milliy qonunchiligimizda belgilangan prokuror tekshiruvi uchun asoslar qatorida bular mavjud emas.

Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishga asoslar qatorida internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma’lumotlar ham bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz. Shu bois, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasida qayd etilgan prokuror tekshiruvi o‘tkazishga asoslar jumlasiga

⁴⁴ О.Н. Коршуновой. Прокурорская проверка. Методика и тактика проведения. 2019. С-7.

⁴⁵ Internet manbasi: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtacrus58_leg_83.pdf

yuqoridagi asoslar ham kiritilsa, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish yanada takomillashgan hamda huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar o‘z vaqtida bartaraf etilgan bo‘lar edi.

Shu bilan bir qatorda, prokuror tekshiruvlari turli bayonotlar va xabarlar asosida, fuqarolarning arizalari, ommaviy-axborot vositalari xabarlari, qonuniylik tahlili natijalari, ilgari o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari, jinoyatlarni tergov qilish natijalari asosida o‘tkazilishi mumkin⁴⁶.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar:

Birinchidan, garchi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda qonunlar ijrosi ustidan tekshirish, prokuror tekshiruvlari jummalari bir necha bor qo‘llanilgan bo‘lsada, prokuror tekshiruvlari o‘zi nima ekanligi belgilanmagan, unga ta‘rif keltirilmagan. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini bilmasdan turib, uni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu boisdan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq va to‘liq ochib beradigan ta‘rif keltirilishi lozim;

Ikkinchidan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning III bo‘lim, Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat nomli 4-bobining 31-moddasi ikkinchi qism, 2-xatboshisi quyidagi tarzda bayon etilishini taklif qilamiz:

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida:

“ushbu shaxslarga yoki ularning *yaqin kishilariga* ruhiy, psixologik, jismoniy *jihatdan salbiy* ta‘sir ko‘rsatilishi yoki boshqacha *tazyiq ko‘rinishida* ta‘sir ko‘rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart”.

⁴⁶ О.Н. Коршуновой. Прокурорская проверка. Методика и тактика проведения. 2019. С-16 – 17.

Uchinchidan, prokuror tekshiruvlarida mutaxassislar ishtiroki bilan bog‘liq muammoli holatlarni bartaraf etish uchun mutaxassislarning manfaatdorligini yanada oshirish joiz.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasiga ilg‘or xorij tajribalarini inobatga olgan holda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning qat’iy, to‘la va zamon talablariga mos asoslarini kiritish lozim deb hisoblaymiz.

IIBOB. QONUNLAR LJROSI YUZASIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.

2.1.Prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish bosqichlari va ularning alohida xususiyatlari

Bosqich so‘zi etimologik jihatdan “pog‘ona”, “palla”, “davri” degan ma’nolarni anglatadi. Har bir narsaning muayyan bosqichlarga ajratilishidan maqsad esa tizimlilikka erishishdir. Bir bosqich boshqa biridan quyidagilar bilan farq qiladi:

- Har bir bosqichdagi amalga oshiriladigan, o‘rganiladigan yoki tadqiq etiladigan masalaning doirasi bilan;
- Muayyan bosqichda ishtirok etadigan subyektlar bilan. Masalan, ma’lum munosabatlarda faqat mansabdor shaxslar yoki faqat yuridik shaxslar ishtirok etishi mumkin;
- Muayyan bosqichdagi munosabatlarni tadqiq etishda yoki tahlil etishda qo‘llaniladigan usullar bilan (misol uchun, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tizimli va funksional);
- Ma’lum bosqichda qo‘llaniladigan hujjatlarning turlari bilan. Misol uchun, prokuror tekshiruvlarining boshlang‘ich bosqichida tekshirish o‘tkazish bilan bog‘liq asoslar bo‘yicha hujjatlar yoki tekshiruv rejasi qabul qilinadi. Yakunlovchi bosqichda esa prokuror nazorati hujjatlari, jumladan intizomiy yoki ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorlar qabul qilinadi.

Prokuror tekshiruvlari o‘z vaqtida, sifatli hamda tartibli o‘tkazilishi uchun mazkur tekshiruvlarning muayyan bosqichlar asosida amalga oshirilishi juda ham muhimdir. Prokuror tekshiruvlarining ma’lum bosqichlar asosida o‘tkazilishi quyidagi afzalliklar ega deb hisoblaymiz:

⇒ Agarda prokuror tekshiruvlari muayyan bosqichlar asosida amalga oshirilsa, tekshiruv o‘tkazuvchi prokuratura xodimi nimani tekshirishiga, tekshirish

obyektining qanday jihatlariga ahamiyat berishi lozim ekanligiga aniqlik kiritib oladi;

⇒ Shuningdek, prokuratura xodimi bosqichlar asosida tekshiruvni amalga oshirish orqali anchagina vaqtdan yutushi mumkin. Ya'ni ma'lum bosqichlarsiz, pala-partish o'tkaziladigan tekshiruv juda uzoq vaqt talab etadi, natijada prokuratura xodimi o'ziga yuklatilgan boshqa xizmat vazifalarini bajara olmasligi hamda unga nisbatan tegishli ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Qolaversa, tartibsiz hamda uzoq vaqt davomida o'tkazilgan prokuror tekshiruvi orqali qonunbuzilishlarini aniqlash holati ham kechikishi va buning oqibatida huquqbuzarliklarni yashirishga qulay imkoniyat yaratib berilishi mumkin.

Ilg'or xorij tajribasi hamda amaliyotni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga prokuror tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlarining quyidagi turlari kiritilishini taklif qilamiz:

- Tayyorlov bosqichi;
- Asosiy bosqich;
- Yakuniy bosqich.

Quyida har bir bosqich hamda unda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni keltirib o'tamiz.

Tayyorlov bosqichi. Mazkur bosqichda tekshiruv o'tkazuvchi qaysi Qonun ijrosi ustidan tekshirish o'tkazishini, tekshirish o'tkazish predmeti va maqsadini, tekshirish o'tkazishga qanday qonuniy asos sabab bo'layotganligini, ushbu qonun hujjati asosida qabul qilingan qonunosti hamda idoraviy-normativ hujjatlarni, tekshirish o'tkaziladigan davlat organi, xo'jalik boshqaruv organi yoki korxonasi, muassasa, tashkilotning asosiy vazifalari hamda funksiyalarini, ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlarini aniqlab olishi lozim.

Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishdan oldin quyidagilarga aniqlik kiritilib, belgilab olinishi darkor:

- Prokuror tekshiruvlarini o'tkazish uchun asoslar;
- Tekshiruv predmeti;

- Tekshiruv o‘tkazish obyekti;
- Tekshiruv o‘tkazish vaqti va joyi;
- Tekshiruv ishtirokchilari doirasi.

Shundan so‘ng tekshiruv o‘tkazish rejasi tuziladi. Aynan unda qaysi qonun ijrosi ustidan tekshirish o‘tkazilishi, tekshirish predmeti, obyekti, o‘tkazish joyi va vaqti hamda amalga oshiriladigan harakatlar, ularni amalga oshirish muddati belgilab olinadi.

Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi ustidan tekshirish o‘tkazilayapti deylik. Bunda tekshirish o‘tkazayotgan prokuror tekshirish o‘tkazishga qanday asos bo‘layotganligini, ya’ni jismoniy yoki yuridik shaxslarning arizalari, ommaviy-axborot vositalari xabarlarini, hay’at qarorlari yoki ish rejalarini belgilab oladi. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun asosida qabul qilingan qonunosti hujjatlari, jumladan, 2018-yil 7-maydagi 341-sonli Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy nizom hamda tekshirilayotgan tashkilotdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom bilan yaqindan tanishib chiqadi. Shuningdek, tekshirish o‘tkazilayotgan tashkilotning faoliyatini tartibga soluvchi Ustav hamda Nizomlar ham batafsil o‘rganib chiqiladi.

Umuman, tayyorlov bosqichida tekshirish o‘tkazuvchi tekshirish o‘tkazgan holda qonunbuzilishlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun zarur “arsenal” bilan qurollanib oladi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish jarayonida quyidagi masalalar aniqlanishi lozim:

- Hujjatni chiqargan tashkilot mazkur hujjatni chiqarish vakolatiga egami;
- Muayyan hujjat qabul qilinishi natijasida boshqa hujjatlar bilan ziddiyat kelib chiqqanmi;

➤ Huquqiy hujjat fuqarolarning huquq va erkinliklarini yoki yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini buzadimi yoki yo‘qmi?

➤ Huquqiy hujjatni chiqargan tashkilot ushbu huquqiy hujjatni chiqarishga doir reglament talablariga amal qilganmi.

Asosiy bosqich. Mazkur bosqich asosiy deyilishiga sabab, unda tekshiruv o‘tkazuvchi prokuratura xodimi tomonidan tegishli shaxslardan tushuntirish xatlari olinadi, muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik yuzasidan talabnomalar kiritiladi, tekshirish o‘tkazishga ko‘maklashish uchun mutaxassislar jalb etiladi, qonunbuzilish holatlari aniqlanadi va tegishli ta’sir choralarini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqiladi. Ya’ni boshqacha qilib aytganda tekshirishning “yurak” vazifalari bajariladi.

Yuqorida tayyorlov bosqichi uchun keltirgan misolimizni asosiy bosqich uchun ham davom ettiramiz. Ushbu bosqichda tekshiruv o‘tkazuvchi prokuratura xodimi tegishli tashkilot mansabdor shaxslaridan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo‘limi xodimlaridan qonunbuzilishlari yuzasidan tushuntirish xatlari olishi, zarur bo‘lganda boshqa tashkilotlardan mutaxassis jalb etish uchun talabnomalar chiqarishi, murojaatlarni qonunda belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqmaslik, murojaatni asossiz boshqa tashkilotlarga yuborish, murojaat qilganlik uchun ta’qib qilish yoki asossiz murojaatni qanoatlantirishni rad etish kabi qonunbuzilish holatlarini sinchiklab o‘rganishi va O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni V bo‘lim, 37-moddasida nazarda tutilgan zarur prokuror nazorati hujjatlari: protest, qaror, taqdimnoma, ariza yoki ogohlantiruvni qo‘llash masalasini ko‘rib chiqishi lozim.

Yakuniy bosqich. Ushbu bosqichda tekshirish o‘tkazuvchi tegishli qonun hujjati ijrosi bo‘yicha barcha qonunbuzilishlarini aniqlab bo‘ladi. Aniqlangan qonunbuzilishlari yuzasidan lozim bo‘lgan prokuror nazorati hujjatlarini kiritadi va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralar xususida tashkilotlardan ma’lumotnomalar va boshqa hujjatlarni qabul qilib oladi, taqdimnomalar kollegial organ tomonidan

ko'rib chiqiladigan hollarda majlislarda ishtirok etadi, zarur bo'lganda yuqori turuvchi prokurorga axborot kiritadi.

Shuningdek, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari predmeti va obyekt bilan quyidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi:

- tumandagi o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning holati, xarakteri, dinamikasi to'g'risida;
- nazorat ostidagi organ yoki muassasa tomonidan qonuniylikni buzishning holati, tabiati va dinamikasi to'g'risida;
- tekshirishdan oldingi davrda tekshirilayotgan yo'nalishda qonuniylik holati to'g'risida;
- avvalgi bunday tekshiruv natijalari haqida;
- prokuratura organlariga, nazorat organlari yoki muassasalariga kelib tushgan shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida;
- voyaga etmaganlarga taalluqli fuqarolik yoki jinoiy ishlarning materiallarini o'rganish natijalari, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik holatlari to'g'risida;
- prokurorning qonuniy talablarini bajarish to'g'risida.

Har bir yo'nalishda o'tkaziladigan prokuror tekshiruvlarining e'tibor berilishi lozim bo'lgan alohida jihatlari mavjud.

Misol uchun, iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratida prokuratura organlarining harakatlari mulk, yer, tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlar, shuningdek, byudjet, soliq, bank, bojxona, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari ijrosini tekshirishga qaratilishi kerak. Davlat mulkini tasarruf etishning qonuniyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozimligi sababli, jinoiy daromadlarni legallashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, korxonalar mulkiga noqonuniy egalik qilish holatlarini aniqlash va bartaraf etish amalga oshirilishi lozim.

Yoxud ekologik qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishini olaylik, mazkur yo'nalishda ekologik vaziyatni hisobga olgan holda har bir mintaqada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatilishi kerak. Tegishli ma'lumotlar mavjud bo'lganda, ekologik qonun hujjatlari ijrosini tekshirishni rejalashtirish va amalga oshirish lozim. Ekologik huquqbuzarlikning har bir holati bo'yicha aybdor shaxslarning javobgarligi va yetkazilgan moddiy zararni undirish masalasi qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, prokuror hech qanday holatda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha davlat zimmasiga yuklatilgan nazorat qiluvchi organlar vazifasini bajarmasligi kerak. Ushbu organlar vakillari tekshirishlarni o'tkazishda ishtirok etish, kelishilgan rejalar bo'yicha tekshiruv o'tkazish uchun jalb qilinishi kerak.

Chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligini tekshirish doimiy, maqsadli, keng qamrovli va bir yoki bir nechta hujjatlarni tekshirish tarzida bo'lishi mumkin.

Doimiy tekshiruvlarning maqsadi muayyan organ yoki mansabdor shaxs tomonidan muayyan vaqt (yil, chorak, oy) uchun chiqarilgan huquqiy hujjatlarni tekshirishdir.

Maqsadli tekshiruvlar muayyan vaqt davomida muayyan masalalar bo'yicha chiqarilgan huquqiy hujjatlarni tekshirishga qaratilgan.

Keng qamrovli tekshiruvlar nafaqat huquqiy hujjatlarning qonuniyligini tekshirish, balki muayyan qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Huquqiy hujjatlarning qonuniyligini tekshirish prokuratura organlari tomonidan prokuratura joylashgan joyda, chiqarilgan hujjatlarni talab qilish orqali ham, ularni chiqarish joyida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvida prokuror tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim jihat shuki, tekshirilayotgan tashkilot chiqargan hujjatning qanchalik qonun hujjatlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini aniqlash uchun ularni e'tibor bilan o'zaro taqqoslagan holda o'qib chiqishi lozim.

Shuningdek e'tibor berish joizki, qonunda belgilangan asoslarga ko'ra, prokuror tekshiruvlari o'tkazilsada tekshiruv orqali qonunbuzilishi holatlari aniqlanmasligi ham mumkin. Bunday holda qanday yo'l tutiladi?

“Agar tekshirish paytida qonun buzilishi aniqlanmasa, tekshiruv tugagan kundan boshlab o‘n kun ichida belgilangan shaklga muvofiq dalolatnoma tuziladi. Mazkur dalolatnoma tekshiruv o‘tkazgan prokuratura xodimi hamda tekshiruv o‘tkazilgan tashkilotning rahbari tomonidan imzolanadi. Bu haqda yuqori turuvchi prokurorga bildiriladi”⁴⁷.

Ta’kidlash joizki, qonun doirasida berilgan prokuror talablari qonunbuzilish holatlarini o‘z vaqtida aniqlashda hamda prokuror tekshiruvlarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasida belgilanganidek, prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o‘tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish to‘g‘risidagi o‘z vakolatlari doirasida qo‘yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o‘z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi. Prokurorning talablari ustidan shikoyat qilinishi ularning ijrosini to‘xtatib qo‘ymaydi.

Mazkur moddadagi muammoli jihat shundaki, unda prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o‘tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek qonunga rioya etish to‘g‘risidagi o‘z vakolatlari doirasida talablar qo‘yilishi belgilab o‘tilgan, ammo mazkur talablarning talab yuborilgan davlat organi, korxonalar, muassasa, tashkilot, ularning

⁴⁷ О.Н. Коршуновой. Прокурорская проверка. Методика и тактика проведения. 2019. С-15.

mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishining aniq muddati belgilanmagan.

Fikrimizcha, bunday talab nazarda tutilganidan soʻng, bunday talablarni bajarishning aniq tartibi va muddatlari ham qonun hujjatida belgilab qoʻyilishi lozim.

Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni 9-moddasida prokurorning qonuniy talablarini bajarish majburiyati belgilab qoʻyilgan. Unda belgilanishicha, Konstitutsiya hamda Turkmaniston qonunlarida nazarda tutilgan vakolatlaridan kelib chiqadigan prokurorning talablari barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalar uchun majburiydir.

Shuningdek, 2020-yil 24-avgustda qabul qilingan 143-sonli Qirgʻiziston Respublikasining “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni 32-moddasi birinchi qismi, 2-kichik bandiga muvofiq, prokuror rahbar va boshqa mansabdor shaxslardan zarur hujjatlar, materiallar, statistik va boshqa maʼlumotlarni taqdim etish, yuzaga kelgan masalalarga aniqlik kiritish uchun mutaxassislarni ajratish, prokuratura organlariga kelib tushgan materiallar, maʼlumotlar, murojaatlarni tekshirish va ularning natijalari toʻgʻrisida xabar berishni talab qilishga haqli.

Mazkur Qonunning 4-moddasida Qirgʻiziston prokuratura faoliyatining asosiy prinsiplari belgilangan boʻlib, uning toʻrtinchi prinsipi sifatida prokuror talablarining majburiyligi prinsipi belgilangan. Ushbu qonunning 6-moddasiga koʻra esa, prokuror va tergovchining qonun hujjatlarida belgilangan asosda va tartibda taqdim etgan talablari (soʻrovlari, koʻrsatmalari, farmoyishlari) davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ushbu organlarning mansabdor shaxslari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi shart. Eʼtiborlisi shundaki, mazkur huquqiy normada prokuror talablarining qavs ichida uch xil koʻrinishi belgilab qoʻyilgan, yaʼni soʻrov, koʻrsatma, farmoyish tarzida. Ammo bizning milliy qonunchiligimizda prokuror talablari alohida tarzda bunday turlarga ajratilmagan.

Qolaversa, ushbu Qonunning 6-moddasida belgilanishicha, soʻralgan maʼlumotlar qonun hujjatlarida belgilangan shakllarda va tartibda prokuratura organlariga taqdim etiladi. Prokuratura organlariga Qirgʻiziston Respublikasining qonun hujjatlari bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirish maqsadida prokurorlar ushbu Qonunning 31-moddasi 1-qismida koʻrsatilgan organlar xonalariga toʻsiqsiz kirish, ularning hujjatlari va materiallaridan foydalanish, shuningdek, sud ishlari bilan tanishish va ularni suddan talab qilish huquqiga ega, bundan mustasno holatlar ham mavjud.

Mansabdor shaxslar hamda fuqarolar tushuntirish va guvohlik berish uchun belgilangan vaqtda prokurorning yoki prokuratura organlarining tergovchisining yozma talabiga binoan yetib kelishi shart.

Mansabdor shaxslar va fuqarolar uzrli sabablarsiz prokuratura organlariga tushuntirishlar berish uchun kelishdan bosh tortgan taqdirda, prokuror bunday shaxsni 24 soat ichida prokuratura organlariga majburiy keltirish toʻgʻrisida qaror qabul qilishga haqlidir. Bu qaror tegishli huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ijro qilinadi.

Prokuratura nazorat hujjatlarini, prokuror yoki tergovchining qonuniy talablarini bajarmaslik, lozim darajada bajarmaslik Qirgʻiziston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab boʻladi.

Shu kabi, Ozarbayjon Respublikasining 1999-yil 7-dekabrda qabul qilingan 767-IQ-sonli “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni 20-moddasi uchinchi qismiga binoan, arizalar, shikoyatlarda koʻrsatilgan faktlarni *tekshirish maqsadida* tegishli prokuror qonunda nazarda tutilgan vakolatlar doirasida davlat organlari yoki auditorlik tashkilotlaridan mutaxassis ajratilishini *talab qiladi* va tergov qilinayotgan faktlar jinoyat ishini qoʻzgʻatish uchun yetarli asos boʻlganligiga qarab tegishli qaror qabul qiladi⁴⁸. Shuningdek, mazkur moddaning birinchi qismida ham prokuror talablari belgilangan muddatda bajarilishi lozimligi qayd etilgan. Ammo ushbu muddat qancha ekanligi aniq va qatʼiy belgilanmagan.

⁴⁸ https://republic.preslib.az/ru_d4-67.html

Amaliyotda muayyan talab bajarilishining muddati prokuror tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo muammo shundaki talab yuborilgan tashkilot mas'ul xodimi yoki mansabdor shaxsi belgilangan muddatda talabni bajarolmasligi yoxud uni obyektiv sabablar tufayli bajarib bo'lmamasligi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Yoinki talab yuborilgan mas'ul shaxs ataylab prokuratura xodimi tomonidan belgilangan muddatda qo'yilgan talabni bajarmasligi va bunga qonunda aniq muddat belgilab qo'yilmaganligini sabab sifatida keltirishi mumkin. Bu esa, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddati kechikishiga, qonunbuzilishlari o'z vaqtida bartaraf etilmasligiga, asossiz qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi prokuror talabi bilan bog'liq muammoli holatlar kelib chiqmasligi uchun quyidagi prokuror talablarini bajarish muddatlarini taklif etamiz:

*Prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish talabi uchun – **darhol**.* Chunki bunday talabni bajarish talabni bajaradigan shaxsdan qo'shimcha o'rganishlar o'tkazishni, umuman olganda, uzoq vaqt sarflanadigan faoliyatni talab etmaydi.

*Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan talabi uchun – **5 kunlik muddat**.* Bunday talabni bajarish ham ko'p muddatni taqazo etmaydi. Ammo kerakli hujjatlarni topish, chiquvchi hujjat sifatida ro'yxatdan o'tkazish kabi masalalarni inobatga olib, 5 kunlik muddatni belgilash lozim deb hisoblaymiz.

*Taftish, tekshirishlar o'tkazish bilan bog'liq prokuror talabini bajarish uchun – **30 kunlik muddat**.* Mazkur davomiylikdagi muddatning belgilanishiga sabab shuki, tabiiy ravishda tekshirish va taftish o'tkazish ko'proq vaqtni talab qiladi. Chunki bu uchun taftish o'tkaziladigan obyektning o'rganish, ma'lumotlar yig'ish, natijalarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish lozim ekanligini ham hisobga olish kerak (Ma'lumot o'rnida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual

kodeksi 187⁷-moddasiga muvofiq, taftish o'tkazish muddati 30 kun etib belgilangan).

2.2.O‘zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan prokuror tekshiruvlarining ahamiyati hamda amalga oshirish mexanizmi

Avvalambor, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarining ahamiyati deganda nimani tushunish lozim ekanligiga aniqlik kiritib olishimiz joiz. Ahamiyat so‘zi hayotda va faoliyatda “tutgan o‘rin”, “qiymat”; “muhimlik” degan mazmuni anglatadi.

Prokuror tekshiruvlarining ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

- Prokuror tekshiruvlari orqali erishilmoqchi bo‘lingan holat. Ya’ni prokuror tekshiruvlari qonunbuzilishi holatlarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan holatdir;

- Shuningdek, prokuror tekshiruvining ahamiyati bunday tekshiruvlar o‘tkazilmaganda qonunlarning ijro etilishi qanday holatga tushib qolishi bilan ham belgilanadi.

Qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar asosan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘tkaziladi. Tekshirishning yo‘nalishidan qat’iy nazar, bu obyektida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlarining hal qilinishi hamda huquqiy xizmat ishining samaradorligini o‘rganishga kompleks yondashish talab qilinadi.

Tekshirishlar nazorat qiluvchi rahbar tomonidan tasdiqlangan reja asosida o‘tkazilib, belgilangan muddatda yakunlanishi, tekshirishga mas’ul bo‘lgan xodim shu vaqt mobaynida mutasaddi mansabdor shaxslardan qonun buzilishiga sabab bo‘lgan holatlar bo‘yicha batafsil tushuntirishlar olib, barcha hujjatlarni jamlab, natijasi haqida nazorat qiluvchi rahbarga ma’lum qilishi va prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlashi lozim.

Tekshirishga bir nechta xodim ijrochi sifatida jalb etilganda ro‘yxatda birinchi ko‘rsatilgan shaxs ijro uchun asosiy mas’ul hisoblanadi.

Tekshirishda ishtirok etgan xodimlar tekshirilgan obyektida muqaddam nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalariga huquqiy baho berishlari va natijasi bo'yicha tavsiya kiritishlari zarur. Tekshirish natijalari bo'yicha hajmi 15 varaqdan kam bo'lmagan, umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotnoma tuziladi va tekshirishga mas'ul bo'lgan prokuratura xodimi, jalb qilingan tegishli mutaxassislar, tekshirilgan obyektning mansabdor yoki moddiy javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi.

Ma'lumotnomaga ilova qilinayotgan boshqa hujjatlar ham tekshirilgan obyektning mansabdor yoki vakolatli shaxslari tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" Qonuniga muvofiq protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantirish prokuror nazorati hujjatlari hisoblanadi, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek qonun buzilishi, uning kelib chiqishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlar bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tekshirishda aniqlangan holatlarni mehnat jamoasida ko'rib chiqishga, natijasini ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga katta e'tibor qaratish lozim. Har bir tayyorlangan prokuror nazorati hujjati xususiyatiga ko'ra nomlanishi, prokuratura organlarida ish yuritish tartibiga amal qilgan holda sana qo'yilishi va raqamlanishi lozim. Prokuror nazorati hujjatlari "Prokuratura to'g'risida" Qonun talablariga binoan tegishli prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

Tekshirishlar o'tkazganda prokuror xo'jalik faoliyatining u yoki bu sohasi bo'yicha mutaxassislar jalb qilishga haqli. Tekshirishlar o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, huquqiy hujjatlar va boshqa kerakli hujjatlar hamda axborotlarni taqdim etish, mutaxassislar jalb qilish, prokuraturaga kelish va qonun buzilishi xususida tushuntirishlar berish singari prokurorning qonuniy talablari barcha organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Tekshirish, taftish, idoraviy va noidoraviy ekspertiza prokuror belgilagan muddatda o'tkazilib, natijalari haqida majburiy tartibda prokurorga ma'lumot beriladi.

Mansabdor shaxslar va fuqarolar prokurorning talablarini bajarmaganliklari uchun qonunda bilan belgilangan javobgarlikka tortiladilar. Qonunlar ijrosini tekshirish. Prokurorlar davlatdagi qonuniylik holatida bevosita aks etayotgan ustuvor yoʻnalishlarni tanlab olishlari lozim.

Xususan, *I.Baskovning* fikri boʻyicha bu yoʻnalishlar 9 tani, *A.Davletovning* fikri boʻyicha 11 tani, amaliyotchi mutaxassis *A.Melnikovning* fikri boʻyicha 5 tani tashkil etadi⁴⁹.

Bizningcha, prokurorlarning bu boradagi faoliyatlari bevosita oʻz hududlarida mavjud boʻlgan qonuniylik ahvolidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi lozim. Bunda asosiy ish hajmi bevosita shaharlar va tumanlar prokuraturalari hissasiga toʻgʻri kelishi unutilmasligi darkor.

Yuqorida koʻrsatilganlardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni taʼminlash maqsadga muvofiq deb hisoblanishi lozim. Vazirliklar, davlat qoʻmitalari, idoralar, fuqarolarning oʻz-oʻzlarini boshqarish organlari, jamoa uyushmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar, vazirliklarning, davlat qoʻmitalarning, idoralarning harbiy qismlari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishini va ular tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya va qonunlarga mosligini nazorat qilish va taʼminlash prokuratura idoralarining alohida eʼtibordagi va ustuvor yoʻnalishi deb baholanishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi prokuraturasining mazkur yoʻnalish boʻyicha maʼsul xodimlari, viloyat, unga tenglashtirilgan, shaharlar, tumanlar, tumanlararo va ixtisoslashtirilgan boshqa prokuraturalar prokurorlari oʻz hududlaridagi qonunchilik ahvoli yuzasidan batafsil maʼlumotga ega boʻlishlari, qonunchilikni taʼminlash borasidagi faoliyatlarini aynan shu maʼlumotlar asosida olib borishlari kerak.

Bu faoliyatini amalga oshirish borasida, *birinchidan*, tegishli nazorat idoralari va boshqa davlat idoralardan joylardagi qonunchilik ahvoli, iqtisod

⁴⁹ Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik.– Toshkent: TDYU, 2019. – 67- bet.

sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning jarayoni, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, ularning borish dinamikasi va to'sqinlik qilayotgan faktorlar yuzasidan tegishli ma'lumotlar talab qilib olinishi: *Ikkinchidan*, to'plangan ma'lumotlarni to'liq va chuqur tahlil qilish, ular orasidan prokuror ta'sir choralari qo'llanishi talab qilinayotgan konkret yo'nalishlar va tarmoqlarni aniqlash zarur.

Qonunlarning ijrosini tekshirishning asosiy omili sifatida tekshiruvlarning aniq va yuqori saviyada rejalashtirishini keltirish mumkin. Aynan yuqori saviyada o'tkazilgan tekshiruvlar qonunlar ijrosi ustidan o'tkazilgan prokuror tekshiruvlarining haqiqiy ahamiyatini ko'rsatib beradi. Negaki aynan ular orqali qonunbuzilishi holatlari bartaraf etiladi, qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ta'minlanadi.

Boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyatlar, nazorat idoralari, mansabdor shaxslarning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol etuvchi noqonuniy huquqiy aktlarini aniqlash va ularga protest keltirish masalasini hal etish umumiy nazorat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Prokurorlarning bu faoliyatiga sistemali va doimiy xarakter berish uchun chiqarilayotgan huquqiy aktlarning Konstitutsiya, qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga mosligini bir kvartalda kamida bir marotaba tekshirilishini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada alohida e'tiborni: Hokimlar, Respublika vazirliklari rahbarlari, idoralar, konsernlar, korporatsiyalar, assotsiatsiyalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, viloyat, shahar va tuman boshqaruv organlari normativ hujjatlarining qonuniyligiga; Davlat idoralarining rahbarlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarga ma'muriy jazo qo'llash haqidagi qarorlari qonuniyligiga qaratilishi shart. Noqonuniy aktlar protest keltirish yo'li bilan bekor qilinishi yoki qonunga muvofiqlashtirilishi lozim. Protest tegishli mansabdor shaxs yoki idora tomonidan rad etilgan holda belgilangan 1 oylik muddat ichida sudga protestni rad etish haqidagi qaror noqonuniy ekanligi tan olinishini talab qilib ariza kiritilishi lozim.

Shu bilan bir qatorda, tekshiruv o‘tkazish obyektini aniqlash muhimdir. Bunda “anchadan beri borilmagan joy” emas, balki qonun buzilayotgan davlat va mehnat intizomi noxush holatda bo‘lgan obyektlar tanlanishi kerak. Tekshiruvlar o‘tkazishda ishni shunday tashkil qilish kerakki, bunda nafaqat qonun buzilishlari, balki ularga sharoit yaratgan sabablarni ham aniqlash lozim.

Fikrimizcha, bunday qonunbuzilishi holatlari mavjud bo‘lgan hamda tekshiruv o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tekshiruv obyektlarini aniqlashda qonuniylik holatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tahlil qilish lozim. Fikrimizning asosi sifatida xorij tajribasiga e‘tibor berib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz. Masalan, Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida qonuniylikni tahlil etishga bag‘ishlangan alohida huquqiy norma mavjud.

Mazkur qonunning 8-moddasi ikkinchi qismiga asosan, qonuniylik holatini tahlil qilish prokurorlar tomonidan statistik ma‘lumotlarni, davlat va xalqaro tashkilotlarning, ommaviy axborot vositalarining ma‘lumotlarini, fuqarolik va jinoyat ishlari, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar materiallarini, shuningdek, boshqa manbalarni o‘rganish yo‘li bilan obyektlarga bormasdan amalga oshiriladi.

Bunda prokurorga jalb qilingan mutaxassislar yordam beradi. Umumiy nazorat sohasidagi yangi qonunchilik bilan, ayniqsa, tuman va shahar bo‘g‘ini prokurorlarini o‘z vaqtida hamda to‘liq tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bu asosan yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan o‘tkaziladigan seminar mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda yangi qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlarining nisbati, murakkab me‘yorlariga tushuntirish (sharh) beriladi. Bu ish faolroq o‘tkazilishi kerak. Negaki hozirgi vaqtda amal qiluvchi qonunchilik, jumladan xo‘jalik, tijorat, tadbirkorlik huquqi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga faol o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Jadal islohotlar davrida prokuratura idoralarining umumiy nazorat faoliyatini zamon talablariga javob bera oladigan darajaga ko‘tarish lozim. Prokurorlar

faoliyatida tashabbuskorlik, fuqarolar va mulkdorlar, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilgan holda qonuniylik, adolatparvarlik, qonunbuzarlikka qarshi murosasizlik talab qilinadi. Respublikamiz iqtisodiyotini, mulkchilikning barcha shakllari va tabiiy boyliklarini, aholi iste'mol huquqlarini himoya qilishga, davlat va mehnat intizomini mustahkamlashga, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

Umuman, prokuratura idoralarining umumiy nazorat faoliyatidagi muhim vazifalari belgilab olinishi kerak. Umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirishlarda yuzakichilikka, sifatsiz va natijasiz tekshirishlar sonini kuchaytirish, rasmiyatchilik kabi holatlarga barham berish, qonunbuzarlarga nisbatan tegishli ta'sir choralari ko'rish, jazoning muqarrarligini ta'minlashda qat'iyatchilik talab etilishi, masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat idoralari ta'siriga berilib qolish, mahalliychilik, oshna-og'aynigarchilik illatlariga barham berish lozim. Shuningdek, umumiy nazorat bo'limlari va bu soha bilan shug'ullanuvchi xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish jarayoniga alohida ahamiyat berilishi, xodimlar qo'nimsizligi, ularni boshqa sohalarga jalb etilishiga chek qo'yish zarurligi prokurorlarning e'tiboridan chetda qolmasligi lozim.

Qonunlarni aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat barcha subyektlarga nisbatan kuchaytirilishi lozim. Tegishli sohaviy buyruqqa ko'ra, prokurorlar o'z vakolatlarini amalga oshirganlarida mustaqil bo'lishlari va faqat qonunga bo'ysunishlari, qonun buzilishlarini o'z vaqtida aniqlashi va oldini olishi, ularga nisbatan tegishli ta'sir choralari qo'llash, buzilgan huquqlarning tiklanishiga erishishlari joiz.

Ayniqsa, respublika agrosanoat kompleksini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazoratni olib borishda e'tibor bilan yondashish belgilandi. Umumiy nazorat tartibidagi tekshiruvlar uslubini takomillashtirish, prokuror huquqiy ta'sir hujjatlari sifatligini, qonun buzilishlari sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularning bartaraf etish va oldini olish, qonunni buzgan shaxslarga chora ko'rilishiga erishish, umumiy nazoratda

oshkoralik, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari ishtirokidan foydalanish belgilandi.

Bundan tashqari, qonun buzilishlari va ularga ko'maklashayotgan shart-sharoitlarni tamomila bartaraf etish maqsadida nazorat tartibida takroriy tekshirishlarni o'tkazish amaliyotidan keng foydalanish lozimligi nazarda tutildi. Umumiy nazorat faoliyatini amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorati idoralari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur, degan ko'rsatma ham sohaviy buyruqdan o'rin olgan.

Tegishli idoralardan qonuniylik haqidagi ma'lumotlarni olib, ulardan umumiy nazorat faoliyatini rejalashtirishda foydalanish lozimligi belgilangan. Umumiy nazorat faoliyatini tashkil etishda quyi, ayniqsa, tuman va shahar prokuraturalariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish, prokuratura idoralarining o'zaro hamkorligi, xodimlar malakasini oshirib borish masalalariga e'tibor berish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli buyruq, ko'rsatma va nizomlarida ko'rsatib o'tilgan.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarining tutgan o'rni, ahamiyatini tushunishda statistik ma'lumotlarni keltirib o'tish hamda tahlil qilish zarur deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2021-yilda Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida **1110 ta** prokuror tekshiruvi o'tkazilgan. Ushbu tekshirishlar asosida **5 565 ta** qonunbuzilish holatlari aniqlangan, **1 049 ta** taqdimnoma kiritilib, **2 584 ta** protest keltirilgan. Shuningdek, **474 nafar** shaxs ogohlantirilib, **1 527 nafar** shaxs intizomiy, **1 527 nafar** shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

2021-yilda Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida o‘tkazilgan jami prokuror tekshiruvlari	1110 ta
Tekshirishlar asosida aniqlangan qonunbuzilishi holatlari	5 565 ta
Huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan kiritilgan taqdimnomalar	1 049 ta
Noqonuniy hujjatni qonunga muvofiqlashtirish yoki bekor qilish yuzasidan keltirilgan protestlar	2 584 ta
Mansabdor shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantirishlar	474 ta
Prokuror tekshiruvlari natijasida intizomiy javobgarlikka tortilgan shaxslar	1 527 nafar
Prokuror tekshiruvlari natijasida ma‘muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar	1 527 nafar


Shu kabi, 2018-yilning yanvar – dekabr oylarida Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida jami 3215 ta prokuror tekshiruvlari o‘tkazilgan bo‘lib, shulardan eng ko‘pi, ya‘ni 608 tasi Sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo‘nalishida esa jami 2225 tekshirish o‘tkazilgan bo‘lib, eng ko‘pi, ya‘ni 301 tasi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uning kafolatlari to‘g‘risida qonunchilik ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan.

Shu bilan bir qatorda, 2019-yilning yanvar – dekabr oylarida Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida jami 3454 ta prokuror tekshiruvlari o‘tkazilgan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich 624 ta bilan Sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida qayd etilgan. Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo‘nalishida esa jami 2626 ta tekshirish o‘tkazilgan hamda eng ko‘pi, ya‘ni 524 tasi Davlat mulki va budjet mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risida qonunchilik ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan.


Shu jumladan, 2020-yilning yanvar – dekabr oylarida Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida jami 3552 ta prokuror tekshiruvi o‘tkazilgan bo‘lib, eng ko‘pi 542 ta bilan Bandlik va mehnat munosabatlari to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Iqtisodiy

qonunchilik ustidan nazorat yoʻnalishida esa jami 3013 ta tekshirish oʻtkazilgan boʻlib, shulardan eng koʻpi 414 ta koʻrsatkich bilan Davlat mulki va budjet mablagʻlarining sarflanishi toʻgʻrisidagi qonunchilik ijrosi boʻyicha oʻtkazilgan.

Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yoʻnalishida 2021-yilning yanvar – dekabr oylarida jami 4105 ta prokuror tekshiruvi oʻtkazilgan boʻlib, eng koʻpi 618 ta bilan Sogʻliqni saqlash toʻgʻrisidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yoʻnalishida qayd etilgan. Qolaversa, tekshirishlarning 432 tasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka, 333 tasi Aholini ish bilan taʼminlash sohasidagi qonunchilikka, 275 tasi Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi qonunchilikka, 240 tasi Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunchilikka, 227 tasi Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi qonunchilikka, 208 tasi esa Madaniyat hamda madaniy meros obyektlarini saqlash toʻgʻrisidagi qonunchilikka, qolganlari esa boshqa sohadagi qonunchilikka toʻgʻri keladi.



Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo‘nalishida esa 2021-yilning yanvar – dekabr oylarida jami 4317 ta prokuror tekshiruvlari o‘tkazilgan bo‘lib, shulardan eng yuqori ko‘rsatkich 772 ta bilan Davlat mulki va budget mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi bo‘yicha qayd etilgan. Shuningdek, tekshirishlarning 312 tasi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va uning kafolatlari to‘g‘risida qonunchilikka, 256 tasi Shaharsozlik va qurilish to‘g‘risidagi qonunchilikka, 223 tasi Kommunal xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi qonunchilikka, 243 tasi Davlat xaridlari va tender savdolari qoidalarini buzish to‘g‘risidagi qonunchilikka, 221 tasi esa manzilli dasturlar ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan tekshirishlarga to‘g‘ri keladi.



Yuqoridagilarga ko‘ra, 2018-yilda Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida eng ko‘p prokuror tekshiruvlari *Sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunchilikka*, Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo‘nalishida esa

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning kafolatlari to'g'risida qonunchilikka to'g'ri keladi.

2019-yilda esa Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida eng ko'p prokuror tekshiruvlari yana *Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunchilikka*, Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo'nalishida esa *Davlat mulki va budjet mablag'larining sarflanishi to'g'risida qonunchilikka to'g'ri keladi.*

Shu jumladan, 2020-yilda esa, Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida eng ko'p prokuror tekshiruvlari *Bandlik va mehnat munosabatlari to'g'risidagi qonunchilikka*, Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo'nalishida esa Davlat mulki va budjet mablag'larining sarflanishi to'g'risidagi qonunchilikka to'g'ri keladi.

Ko'rinib turibdiki, 2021-yilda Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishida eng ko'p prokuror tekshiruvlari *Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunchilikka*, Iqtisodiy qonunchilik ustidan nazorat yo'nalishida esa Davlat mulki va budjet mablag'larining sarflanishi to'g'risidagi qonunchilikka to'g'ri keladi.

Yuqoridagi 4 yillik statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng ko'p prokuror tekshiruvlari *Sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunchilik, Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va uning kafolatlari to'g'risida qonunchilik, Bandlik va mehnat munosabatlari to'g'risidagi qonunchilik hamda Davlat mulki va budjet mablag'larining sarflanishi to'g'risida qonunchilik ijrosi yuzasidan o'tkazilgan bo'lib*, bu o'z navbatida mazkur yo'nalishlar prokuror tekshiruvlari o'tkazilishini talab qiladigan eng dolzarb qonunchilik yo'nalishlari ekanligini bildiradi.

Shuningdek, *Aholini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini tekshirish natijalari*: 1 645 ta holatda 1,9 mld. so'm pensiya va nafaqalar noto'g'ri tayinlangan va to'plangan, 91 ta holatda 29 mlrd. so'm ish haqi, pensiya va nafaqa to'lovlari uchun ajratilgan byudjet mablag'lari talon-toroj qilingan. Davlat buyurtmasi bajarilishi bo'yicha hisobotlarga 2,9 mingga yaqin ish o'rinlari qo'shib yozilgan, Mehnat qonunchiligi sohasida 3 710 ta qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'yilgan.

Shuningdek, 43 259 nafar ishsiz fuqarolarga ishga joylashishda amaliy yordam ko'rsatilgan, 1528 nafar fuqarolarga belgilangan muddatida tayinlanmagan pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarning tayinlanishi ta'minlangan, 41 nafar fuqaroga pensiya to'lovlari miqdorining oshirilishi ta'minlangan, 43 259 nafar ishsiz fuqarolarga ishga joylashtirishda amaliy yordam ko'rsatilgan, 4,5 mingga yaqin fuqarolarning 7,3 mlrd. so'm ish haqi, pensiya va nafaqa to'lovlari undirilgan.

O'simliklarni himoya qilishga oid qonun hujjatlari ijrosini tekshirish: 226 ta holatda 3 mlrd. 332 mln. so'mlik 709 ta qimmatbaho daraxt va butalar kesilishiga yo'l qo'yilganligi aniqlangan, 2021 yilda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida bevosita prokuratura idoralarining sa'y-harakatlari bilan jami 18,6 gektar maydonda 139 ta alleyalar (yashil hudud) tashkil etilib, 80 ming tupdan ortiq turli manzarali daraxt va butalar ekilgan, prokuratura binosi va unga tutash hududlarda 36,2 ming tupdan ortiq daraxtlar ekilgan, birgina Sergeli tumanida 105 mingta, 46 mingta manzarali va 59 mingta mevali daraxt va butalar ekilgan.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari hujjatlari ijrosini tekshirish natijalari: Respublika bo'yicha 18 540 ta xonadon, 49 ta tarixiy - madaniy obida, 24 ta ijtimoiy soha obyektlari, 75 ta ma'muriy inshootlar hamda 772 gektar (dala, cho'l, qabriston) ochiq yer maydonlari termitlardan zararlangan, termitlarning o'choqlari mavjud hududda uy-joy qurish uchun yer maydoni ajratilishi oqibatida Kogon tumani, Chuqurko'l qishlog'ida qurilgan 9 ta namunaviy uylar yaroqsiz ahvolga kelib, 5 ta uy egalari turar joysiz qolgan. Qashqadaryo viloyatida termitlarning zarari qayd qilingan obyektlar soni so'nggi 7 yilda 3 775 tadan 6 131 taga oshgan.

Shuningdek, Xiva shahrida 81 ta uy - joylarda termitlarga qarshi kurashish va profilaktik chora - tadbirlar o'z vaqtida amalga shirilmaganligi oqibatida hozirgi kunga kelib ushbu xonadonlar soni 500 tadan oshib, zararlanish darajasi 30 - 40 foizga yetgan, Xiva shahrining "Paxlavon Mahmud" ko'chasidagi termitlardan zararlangan uy qulashi oqibatida xonadon egasi X.Safayevning ikki nafar farzandi

halok bo'lgan, “Ichan – Qal’a davlat qo‘riqxonasi”dagi 54 ta tarixiy obidaning 33 tasiga (Juma masjid muzeyi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad Inoq va b.) termitlarning tarqalishi jiddiy zarar yetkazgan. Bunday holatlarni Surxondaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Fayoztepa, Al-Hakim at-Termiziy, Qashqadaryo viloyatidagi Hazrati Imom masjidi, Imom Xasan-Xusan ziyoratgohi, Mizdaxkan kompleksida ham uchratish mumkin. Ushbu qonun buzilishi holatlarini kelib chiqishiga termitlarga qarshi kurashishga vakolatli organ bo‘lgan “Respublika termitlarga qarshi kurashish markazi” DUKga atigi 2 nafar xodim shtat birligi ajratilganligi, moddiy texnik va ishlab chiqarish uskunalari bilan ta'minlanmaganligi sabablardan biri bo‘lgan.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar:

*Birinchi*dan, prokuror tekshiruvlari prokuror nazoratini amalga oshirishning eng muhim va ta’sirchan shakli hisoblanadi. Tartibli, tizimli, qat’iy va o‘z vaqtida amalga oshiriladigan prokuror tekshiruvlariga erishish hamda qonunbuzilish holatlari, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun prokuror tekshiruvlarini “tayyorlov”, “asosiy” va “yakuniy” bosqichlar asosida o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilishi lozim deb hisoblaymiz.

*Ikkinchi*dan, qonunlar ijrosi ustidan samarali tekshirish o‘tkazish uchun tekshiruv o‘tkazayotgan prokuror davlat organlari, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar oldiga bir qator talablar qo‘yishi mumkin. Bir qancha obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, bir talabni bajarish uchun zarur bo‘lgan muddat boshqasidan keskin farq qiladi. Holbuki, prokuror talablarini o‘z vaqtida bajarmaslik sodir etilgan huquqbuzarliklarni yashirishga imkon yaratish orqali prokuror tekshiruvi samaradorligiga putur yetkazadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga ilg‘or xorij tajribasini inobatga olgan holda, prokuror talablarini bajarishning aniq muddatlari kiritilishi joiz deb o‘ylaymiz.

Uchinidan, chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligini tekshirish doimiy, maqsadli, keng qamrovli va bir yoki bir nechta hujjatlarni tekshirish tarzida bo‘lishi mumkin. Bunday tekshirishlarning har biri boshqa biridan o‘ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, ularning eng maqbulini tanlash tekshiruvlar samaradorligini oshiradi.

III BOB. PROKUROR TEKSHIRUVLARINI QONUN HUJJATLARIDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Prokuror tekshiruvlari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos tomonlari

Prokuror tekshiruvlarini qonun hujjatlarida tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bir qator xorij mamlakatlar tajribasiga murojaat qilindi. Jumladan, roman-german huquqiy tizimiga kiruvchi Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Ozarbayjon davlatlarining, anglo-sakson huquqiy tizimiga kiruvchi Germaniya, Shvetsiya va Daniya davlatlarining ilg'or tajribasi o'rganildi. Quyida ularni birin-ketin keltirib o'tamiz.

Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvarda qabul qilingan 2202-I-sonli "Prokuratura idoralari to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasi, ikkinchi qismiga ko'ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshirishi *qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar asosida* hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi belgilangan⁵⁰. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma'lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo'lishi belgilangan. Ammo milliy qonunchiligimizda belgilangan prokuror tekshiruvi uchun asoslar qatorida bular mavjud emas.

Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga asoslar qatorida internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar ham bo'lishi lozim deb hisoblaymiz. Shu bois, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasida qayd etilgan prokuror tekshiruvi o'tkazishga asoslar qatoriga yuqoridagi asoslar ham kiritilsa, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish yanada

⁵⁰ Internet manbasi // https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus58_leg_83.pdf

takomillashgan hamda huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar o‘z vaqtida bartaraf etilgan bo‘lar edi.

Shu bilan bir qatorda, Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni IV bo‘lim, 1-bob, 36-moddasi 2-qismiga asosan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror tomonidan olingan ma‘lumotlar va qonun buzilishlari to‘g‘risidagi mavjud ma‘lumotlar asosida o‘tkaziladi.

Prokuror tekshiruvlari amalga oshirilish yo‘nalishidan kelib chiqib quyidagi turlarga bo‘linadi:

Nazorat ostida amalga oshiriladigan tekshiruvlar;

Nazorat doirasida amalga oshirilmaydigan tekshiruvlar;

Aralash tekshiruvlar⁵¹.

Nazorat ostida amalga oshiriladigan tekshiruvlar prokuratura organlarining prokuror nazorati doirasiga kiradigan tashkilot va muassasalarda o‘tkaziladigan tekshiruvlar hisoblanadi. Misol uchun, *O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2021-yil 25-maydagi 229-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomda Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi nazorat amalga oshiradigan 52 tadan ortiq obyektlar sanab o‘tilgan. Bundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, agarda prokuratura organlari tomonidan yuqoridagi ro‘yxatga kiradigan “Sog‘liqni saqlash vazirligi” tizimida o‘tkaziladigan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari nazorat ostida amalga oshiriladigan tekshirishlar sirasiga kiradi.*

Garchi sudlar prokuratura organlarining prokuror nazorati predmetiga kirmasada ular chiqargan sud hujjatlariga nisbatan prokuror protest keltirishga haqli. Bunday protest keltirish uchun esa, albatta, ular qonunga muvofiqlik nuqtai nazaridan tekshiriladi. Mazkur misol *nazorat doirasida amalga oshirilmaydigan tekshiruvlar* jumlasiga kiradi.

⁵¹ О.Н. Коршуновой. Прокурорская проверка. Методика и тактика проведения. 2019. С-10.

Shuningdek, chet el qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Qo'shimcha materiallarni so'rab olish zarurati tug'ilganda, shuningdek, tekshirishning katta miqdori bilan bog'liq holda, uni o'tkazish muddati alohida hollarda o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga va faqat Bosh prokuror, uning o'rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi mumkin. Ekspertiza tayinlangan hollarda, shuningdek xorijiy davlatlardan ma'lumotlar va hujjatlarni olish zarur bo'lganda – ular kelib tushgunga qadar, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazishga to'sqinlik qiladigan boshqa hollarda tekshirish to'xtatilishi mumkin. To'xtatilgan tekshirishni o'tkazish muddatini hisoblash u qayta tiklangan kundan boshlab davom etadi.

Tekshiruv tayinlash va ularni o'tkazish muddatlari to'g'risidagi qarorlarni ro'yxatdan o'tkazishning ushbu tartibi jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligi, ijro ishi to'g'risidagi, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi, tezkor-qidiruv va kontrrazvedka faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari doirasida o'tkaziladigan tekshirishlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Tekshirish faqat tekshirish tayinlash to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan shaxslar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin.

Agar ular tekshirish obyekti bo'lmasa yoki tekshirish predmetiga taalluqli bo'lmasa, tekshiruvni o'tkazishda prokuror hujjatlar, ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilish, tekshirishning belgilangan muddatlaridan oshib ketishiga yo'l qo'yish huquqlariga ega emas⁵².

Mazkur moddadan ko'rinib turibdiki, Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunida prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddati, uni uzaytirish, to'xtatib turish tartiblari aniq belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Daniya Respublikasining qonunchiligiga ko'ra, Daniya prokurorlari jinoyatchilikka qarshi kurashishi faoliyatida politsiya bilan yaqin

⁵² Internet manbasi: <https://cis-legislation.com/document.fwxrgn=98181>

hamkorlikda faoliyat yuritadi. Shu kabi, politsiya organlarining jinoiy tergov harakatlari ustidan nazorat oʻrnatadi hamda ular faoliyati ustidan qonunchilikka rioya qilinishi nuqtai nazaridan tekshiruvlar oʻtkazadi. Bunday prokuror nazorati va prokuror tekshiruvlarini oʻtkazish prokuratura xodimlarining majburiyati hisoblanadi⁵³.

Shu kabi, Shvetsiya qonunchiligiga muvofiq, prokurorning 3 ta asosiy vazifasi bor. Birinchisi, jinoyat ishlari boʻyicha tergov oʻtkazish; ikkinchisi, sud davlat ayblovini amalga oshirish; uchinchisi, qonunlar ijrosi ustidan nazorat oʻrnatish. Jinoyat ishlarini tergov qilayotgan organlar faoliyati ustidan nazorat oʻrnata borib, qonunbuzilish holatlarini aniqlash hamda bartaraf etish uchun tegishlar asoslarga koʻra, prokuratura xodimlari tomonidan prokuror tekshiruvlari oʻtkaziladi⁵⁴.

Shu bilan birga, Germaniya tajribasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, mazkur davlatda prokuratura organlari barcha tergov organlari faoliyati ustidan nazorat oʻrnatadi hamda bu borada prokuror tekshiruvlarini oʻtkazadi. Qolaversa, prokuratura organlari tekshiruv davomida ishga doir maʼlumotlarni olish uchun politsiya organlariga qonuniy talablar qoʻyadi. Statistik maʼlumotlarga binoan, Germaniyada prokuratura organlari jinoyat ishiga oid maʼlumotlarning 80 foizini politsiyadan oladi⁵⁵.

Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasiga muvofiq, Ozarbayjon Respublikasining prokuratura organlari qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qiladi. Qolaversa, oʻz vakolatlari doirasida sud davlat ayblovini quvvatlaydi, jinoyat ishlari boʻyicha tergovni amalga oshiradi⁵⁶.

Ozarbayjon Respublikasining 1999-yil 7-dekabrda qabul qilingan 767-IQ-sonli “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni 4-moddasi birinchi qismi,

⁵³ https://www.ejn-crimjust.europa.eu/ejnupload/InfoAbout/The_Danish_Prosecution_Service.pdf

⁵⁴ <https://www.jstor.org/stable/10.1086/666490>

⁵⁵ https://unafei.or.jp/publications/pdf/RS_No60/No60_10VE_Siegismund2.pdf

⁵⁶ https://www.constituteproject.org/constitution/Azerbaijan_2016.pdf?lang=en

3-xatboshisida surishtiruv organlari va tezkor-qidiruv organlari faoliyatida qonunlarning ijro etilishi va qo'llanilishini nazorat qilish hamda tekshirish prokuratura organlari asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan.

Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasiga ko'ra, prokuror qonunda nazarda tutilgan hollarda vakolatli davlat organiga tekshiruv o'tkazishni topshirishga haqli. Vakolatli organ prokurorni tekshiruv natijalari to'g'risida qonunda belgilangan muddatda xabardor qilishi shart. Ammo huquqni muhofaza qilish va maxsus davlat organlari faoliyatida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda o'tkaziladigan tekshirishlar prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, mazkur moddaning 3-bandiga asosan, prokuror tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi, u huquqiy statistika va maxsus hisob-kitoblar bo'yicha vakolatli davlat organida ro'yxatga olinadi. Ushbu moddaning 4-bandiga binoan esa, tekshirish faqat tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Prokuratura xodimi belgilangan tekshiruv muddati o'tgandan so'ng, tekshiruv o'tkazishga haqli emas, Qolaversa, tekshirilayotgan obyektning normal ishlashiga to'sqinlik qiladigan hollarda ham prokuror tekshiruvini amalga oshirib bo'lmaydi.

Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, Bosh prokurorning o'rinbosarlari, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning, tumanlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning davlat, mahalliy vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda ularning mansabdor shaxslarini tayinlash hamda faoliyatini tekshirish to'g'risidagi qarorlari qabul qilinadi.

Huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun:

jismoniy, aqliy va boshqa holatlar tufayli o'z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirolmaydigan shaxslar manfaatlarini himoya qilish uchun;

cheksiz shaxslar doirasi, ya'ni barcha shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun;

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, lozim bo'lsa, Qozog'iston Respublikasi, shuningdek inson hayoti, salomatligi yoki xavfsizligi uchun qaytarilmas oqibatlarining oldini olish maqsadida;

xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga davlat, mahalliy vakillik va ijro etuvchi organlar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan aralashuv faktlari bo'yicha qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari o'tkaziladi. *Prokuror tekshiruvlarida* davomida prokuratura xodimlari boshqa tashkilotlarning vazifalarini bajarishi mumkin emas⁵⁷.

Shu kabi, 2020-yil 24-avgustda qabul qilingan 143-sonli Qirg'iziston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 42-moddasi ikkinchi qismiga binoan, harbiy xizmatchi maqomiga ega bo'lgan shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik fakti to'g'risidagi xabarni tekshirish prokuratura organlarining vakolatiga kiradi.

⁵⁷ https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31690116&pos=5;-106#pos=5;-106

3.2. Prokuror tekshiruvlarini milliy qonunchilikda tartibga solish istiqbollari

Prokuror tekshiruvlarini qonun hujjatlarida, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunda tartibga solishning istiqbollari yoritib berish uchun qonun hujjatlariga takliflarni ilg'or xorij tajribasi asosida asoslagan holda birin-ketin keltirib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bo'lim, XXIV bob, 118-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O'RQ-257-II-sonli "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida **qonunlarning** aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy normada "qonunlarning" jumlasini ishlatilgan. Vaholanki, prokuratura organlari nafaqat qonunlarning balki O'zbekiston Respublikasi hududida boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning, jumladan, qonunosti hujjatlarining ham aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi. Shu boisdan, mazkur moddalarda "qonunlarning" jumlasini qo'llanilishi prokuratura organlarining asosiy faoliyatini nisbatan tor doirada tushunilishiga olib keladi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O'RQ-682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasi birinchi qismiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlar **qonunchilik hujjatlari** hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, "qonunchilik hujjatlari" jumlasini "qonunlar" jumlasiga qaraganda ancha keng doirada bo'lib, o'z ichiga qonun hujjatlarini ham, qonunosti hujjatlarini ham qamrab oladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasidagi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasi ikkinchi qismidagi "qonunlarning" jumlasini "qonunchilik hujjatlarining" jumlasiga o'zgartirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Garchi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda qonunlar ijrosi ustidan tekshirish, prokuror tekshiruvlari jumalari bir necha bor qo‘llanilgan bo‘lsada, prokuror tekshiruvlari o‘zi nima ekanligi belgilanmagan, unga ta‘rif keltirilmagan. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini bilmasdan turib, uni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu boisdan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq va to‘liq ochib beradigan ta‘rif keltirilishi lozim deb hisoblaymiz.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” ga quyidagicha ta‘rif keltirilishini taklif qilamiz:

“Prokuror tekshiruvi bu – bu prokuratura organlari tomonidan muayyan qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan asoslar, muddatlar hamda tartiblarda davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda o‘tkaziladigan tekshiruvdir”.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning III bo‘lim, Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat nomli 4-bobining 31-moddasi ikkinchi qism, 2-xatboshisiga binoan, prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida ushbu shaxslarga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta‘sir ko‘rsatilishi yoki boshqacha tarzda ta‘sir ko‘rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart.

Yuqorida keltirib o‘tilgan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisida “yaqin qarindoshlar” tushunchasining o‘rniga “yaqin kishilar” tushunchasi ishlatilgani ma‘qul deb hisoblaymiz. Negaki yaqin kishilar tushunchasi yaqin qarindoshlardan ko‘ra kengroq shaxslar doirasini nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud

amaliyoti to'g'risida"gi qarori 12-bandi mazmuniga asosan, yaqin kishilar qatoriga, shaxsning yaqin qarindoshlaridan tashqari, u bilan alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslar ham kirishi mumkin. Shuningdek, amaliyotda ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslar, ularning yaqin qarindoshlaridan tashqari *ular bilan shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarga* ham ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatilishi yoxud boshqacha tarzda tazyiq o'tkazilishi hollari uchrab turadi. Chunki ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslar bilan yaqin munosabatda bo'lgan boshqa shaxslarga salbiy ta'sir ko'rsatilishi ularning ham ruhan qiynalishiga, ma'naviy zarar ko'rishiga olib keladi. Hatto ayrim hollarda shaxs uchun u bilan alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarning qadri uning yaqin qarindoshlarinikidanda yuqoriroq bo'ladi hamda bunday shaxslar uchun ko'proq qayg'uradi.

Qolaversa, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari qo'llanilayotgan shaxslarga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslar ham aynan ularning yaqin qarindoshlari singari alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan shaxslarga tazyiq o'tkazishi yanada ta'sirliroq bo'lishini biladi. Shuningdek, "yaqin kishilar" tushunchasi alohida shaxsiy do'stona munosabatda bo'lgan boshqa shaxslarni ham qamrab olishini inobatga olib, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisi quyidagi tarzda bayon etilishini taklif qilamiz:

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o'z vakolatlari doirasida:

“ushbu shaxslarga yoki ularning *yaqin kishilariga* ruhiy, psixologik, jismoniy *jihatdan salbiy* ta’sir ko’rsatilishi yoki boshqacha *tazyiq ko’rinishida* ta’sir ko’rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart”.

2020-yil 24-avgustda qabul qilingan 143-sonli Qirg‘iziston Respublikasining “Prokuratura to’g‘risida”gi Qonuni 42-moddasi ikkinchi qismiga binoan, harbiy xizmatchi maqomiga ega bo’lgan shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik fakti to’g‘risidagi xabarni tekshirish prokuratura organlarining vakolatiga kiradi.

Shu kabi, Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura to’g‘risida”gi Qonuni IV bo’lim, 1-bob, 36-moddasi 2-qismiga asosan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror tomonidan olingan ma’lumotlar va qonun buzilishlari to’g‘risidagi mavjud ma’lumotlar asosida o’tkaziladi.

Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvarda qabul qilingan 2202-I-sonli “Prokuratura idoralari to’g‘risida”gi Qonuni 21-moddasi, ikkinchi qismiga ko’ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshirishi *qonun buzilishi haqidagi ma’lumotlar asosida* hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko’rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi belgilangan⁵⁸. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o’tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan ma’lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma’lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma’lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo’lishi belgilangan. Ammo milliy qonunchiligimizda belgilangan prokuror tekshiruvi uchun asoslar qatorida bular mavjud emas.

Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o’tkazishga asoslar qatorida internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma’lumotlar ham bo’lishi lozim deb hisoblaymiz. Shu bois, “Prokuratura to’g‘risida”gi Qonunning 21-moddasida qayd etilgan prokuror tekshiruvi o’tkazishga asoslar jumlasiga

⁵⁸ Internet manbasi: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus58_leg_83.pdf

yuqoridagi asoslar ham kiritilsa, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish yanada takomillashgan hamda huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar o'z vaqtida bartaraf etilgan bo'lar edi.

Qozog'iston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Qo'shimcha materiallarni so'rab olish zarurati tug'ilganda, shuningdek, tekshirishning katta miqdori bilan bog'liq holda, uni o'tkazish muddati alohida hollarda o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga va faqat Bosh prokuror, uning o'rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi mumkin. Ekspertiza tayinlangan hollarda, shuningdek xorijiy davlatlardan ma'lumotlar va hujjatlarni olish zarur bo'lganda – ular kelib tushgunga qadar, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazishga to'sqinlik qiladigan boshqa hollarda tekshirish to'xtatilishi mumkin. To'xtatilgan tekshirishni o'tkazish muddatini hisoblash u qayta tiklangan kundan boshlab davom etadi.

Qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlarini o'tkazish mumkin bo'lgan *quyidagi muddatlarini taklif qilamiz:*

Prokuratura organlari qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvini 1 oy muddatda o'tkazishlari lozim. Quyidagi hollarda tegishli prokuror tomonidan mazkur muddat yana bir oyga uzaytirilishi mumkin:

⇒ Prokuror tekshiruvlari bo'yicha o'tkazilishi ko'p vaqtni talab qiladigan ekspertiza yoki taftish tayinlanganda;

⇒ Tekshiruv o'tkazishning bir oylik muddatida qonunbuzilishlari to'liq aniqlanmaganda, ammo tekshiruvni davom ettirish uchun hali asoslar mavjud bo'lganda.

Shu bilan bir qatorda, tekshirishni o'tkazish muddati alohida hollarda o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, faqat Bosh prokuror yoki uning o'rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi lozimligi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga kiritilsa, ushbu Qonun yanada takomillashgan hamda uni qo'llash samaradorligi oshgan bo'lar edi.

Prokuratura tekshiruvlarida mutaxassislarning ishtiroki masalalarini huquqiy tartibga solinishida ham muammolar mavjud. Prokuror tekshiruvlariga mutaxassislarni jalb qilish bilan bog‘liq muammolar quyidagilarda ko‘rinadi:

ekspert-tahliliy yordamning sifatsizligi;

prokuror tomonidan tekshirish natijalariga jalb qilingan mutaxassislarning moddiy manfaatdor emasligi.

Prokuror tomonidan tekshirish natijalariga jalb qilingan mutaxassislarning manfaatdor emasligi ham prokuror tekshiruvlarini samarali o‘tkazishdagi dolzarb masalalardan biridir.

Prokuror tekshiruvlariga jalb etiladigan mutaxassislar muayyan korxonalar, muassasa yoki tashkilotlarda mehnat shartnomasi asosida faoliyat yuritadi. Ish beruvchi oldiga esa prokuror tekshiruviga mutaxassis ajratish bo‘yicha prokurorning qonuniy talabi qo‘yiladi. Amaliyotda muammo shuki, ish beruvchi tomonidan mutaxassisga ish haqini u prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan vaqtini chegirib tashlab, ish vaqtiga qo‘shib hisoblamasdan to‘lash hollari uchraydi. Bunga asos sifatida esa mutaxassis prokuror tekshiruvlariga jalb etilib, ish joyida bo‘lmaganligini hamda mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib borayotgan korxonalar manfaatli uchun harakat qilmaganligini keltirishadi. Tabiiyki, bunday holatga avval duch kelgan mutaxassis keyingi safar prokuror tekshiruviga jalb etilganda prokuror tekshiruvlariga doir vazifalarini chin ko‘ngildan bajarmaydi, vazifani esa sifatsiz bo‘lsada tezroq bajarib topshirishni xohlaydi. Bu esa tekshiruvlarini samarali hamda sifatli bo‘lmasligiga, qonunbuzilish holatlari aniqlanmasligiga va bartaraf etilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday holatlarni oldini olish uchun prokuror tekshiruvlariga jalb etiladigan mutaxassislarga mehnat shartnomasi asosida faoliyat olib boradigan ish joyidagi ish haqini muqarrar saqlab qolishdan tashqari qo‘shimcha haq to‘lash ham joriy etilsa, mutaxassislarning manfaatdorligi oshgan bo‘lar edi.

Yuqoridagi prokuror tekshiruvlarida mutaxassislar ishtiroki bilan bog'liq muammoli holatlarni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

Prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan mutaxassislar ushbu muddat davomida *asosiy ish joyidagi vazifalardan ozod etilishi*;

Mutaxassislarga tekshirishlarda ishtirok etgani uchun *qo'chimcha haq to'lash*;

Bila turib prokuror tekshiruvlari uchun qonunbuzilish holatlari to'g'risida noto'g'ri xulosa taqdim etganlik uchun *mutaxassislarning javobgarligi bilan bog'liq qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy normalarni takomillashtirish*, jumladan, javobgarlikni yanada kuchaytirish. Bu qonunbuzilish holatlari haqida noto'g'ri ma'lumotlar berilishining oldini oladi.

Prokuror tekshiruvlari o'z vaqtida, sifatli hamda tartibli o'tkazilishi uchun mazkur tekshiruvlarning muayyan bosqichlar asosida amalga oshirilishi juda ham muhimdir. Prokuror tekshiruvlarining ma'lum bosqichlar asosida o'tkazilishi quyidagi afzalliklar ega deb hisoblaymiz:

⇒ Agarda prokuror tekshiruvlari muayyan bosqichlar asosida amalga oshirilsa, tekshiruv o'tkazuvchi prokuratura xodimi nimani tekshirishiga, tekshirish obyektining qanday jihatlariga ahamiyat berishi lozim ekanligiga aniqlik kiritib oladi;

⇒ Shuningdek, prokuratura xodimi bosqichlar asosida tekshiruvni amalga oshirish orqali anchagina vaqtdan yutushi mumkin. Ya'ni ma'lum bosqichlarsiz, pala-partish o'tkaziladigan tekshiruv juda uzoq vaqt talab etadi, natijada prokuratura xodimi o'ziga yuklatilgan boshqa xizmat vazifalarini bajara olmasligi hamda unga nisbatan tegishli ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Qolaversa, tartibsiz hamda uzoq vaqt davomida o'tkazilgan prokuror tekshiruvi orqali qonunbuzilishlarini aniqlash holati ham kechikishi va buning oqibatida huquqbuzarliklarni yashirishga qulay imkoniyat yaratib berilishi mumkin.

Ilg'or xorij tajribasi hamda amaliyotni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga prokuror tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlarining quyidagi turlari kiritilishini taklif qilamiz:

- Tayyorlov bosqichi;
- Asosiy bosqich;
- Yakuniy bosqich.

Prokuror tekshiruvlarining har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlarning batafsil tavsifi mazkur tadqiqot ishining 2.1-paragrafida qayd etib o'tilgan.

2020-yil 24-avgustda qabul qilingan 143-sonli Qirg'iziston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasi birinchi qismi, 2-kichik bandiga muvofiq, prokuror rahbar va boshqa mansabdor shaxslardan zarur hujjatlar, materiallar, statistik va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, yuzaga kelgan masalalarga aniqlik kiritish uchun mutaxassislarni ajratish, prokuratura organlariga kelib tushgan materiallar, ma'lumotlar, murojaatlarni tekshirish va ularning natijalari to'g'risida xabar berishni talab qilishga haqli.

Mazkur Qonunning 4-moddasida Qirg'iziston prokuratura faoliyatining asosiy prinsiplari belgilangan bo'lib, uning to'rtinchi prinsipi sifatida prokuror talablarining majburiyligi prinsipi belgilangan. Ushbu qonunning 6-moddasiga ko'ra esa, prokuror va tergovchining qonun hujjatlarida belgilangan asosda va tartibda taqdim etgan talablari (so'rovlari, ko'rsatmalari, farmoyishlari) davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ushbu organlarning mansabdor shaxslari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi shart. E'tiborlisi shundaki, mazkur huquqiy normada prokuror talablarining qavs ichida uch xil ko'rinishi belgilab qo'yilgan, ya'ni so'rov, ko'rsatma, farmoyish. Ammo bizning milliy qonunchiligimizda prokuror talablari alohida tarzda bunday turlarga ajratilmagan.

Qolaversa, 6-moddada belgilanishicha, so'ralgan ma'lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan shakllarda va tartibda prokuratura organlariga taqdim

etiladi. Prokuratura organlariga Qirg‘iziston Respublikasining qonun hujjatlari bilan yuklatilgan vakolatlarni amalga oshirish maqsadida prokurorlar ushbu Qonunning 31-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan organlar xonalariga to‘siqsiz kirish, ularni tekshirish masalalari bo‘yicha rahbarlar tomonidan zudlik bilan qabul qilish, hujjatlar va materiallardan foydalanish, shuningdek, sud ishlari bilan tanishish va ularni suddan talab qilish huquqiga ega, bundan mustasno holatlar ham mavjud.

Mansabdor shaxslar va fuqarolar tushuntirish yoki guvohlik berish uchun belgilangan vaqtda prokuror yoki prokuratura organlarining tergovchisining yozma talabiga binoan yetib kelishi shart.

Uzrli sabablarsiz mansabdor shaxslar va fuqarolar prokuratura organlariga tushuntirishlar berishdan bosh tortgan taqdirda, prokuror bunday shaxsni 24 soat ichida majburiy keltirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

Prokuror nazorat hujjatlarini, prokuror yoki tergovchining qonuniy talablarini bajarmaslik yoxud lozim darajada bajarmaslik Qirg‘iziston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Shu kabi, Ozarbayjon Respublikasining 1999-yil 7-dekabrda qabul qilingan 767-IQ-sonli “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi uchinchi qismiga binoan, arizalar, shikoyatlarda ko‘rsatilgan faktlarni *tekshirish maqsadida* tegishli prokuror qonunda nazarda tutilgan vakolatlar doirasida davlat organlari yoki auditorlik tashkilotlaridan mutaxassis ajratilishini *talab qiladi* va tergov qilinayotgan faktlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun yetarli asos bo‘lishiga qarab tegishli qaror qabul qiladi⁵⁹.

Shuningdek, mazkur moddaning birinchi qismida ham prokuror talablari belgilangan muddatda bajarilishi lozimligi qayd etilgan. Ammo ushbu muddat qancha ekanligi aniq va qat’iy belgilanmagan.

Amaliyotda muayyan talab bajarilishining muddati prokuror tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo muammo shundaki talab yuborilgan tashkilot mas’ul xodimi yoki mansabdor shaxsi belgilangan muddatda talabni bajarolmasligi yoxud

⁵⁹ https://republic.preslib.az/ru_d4-67.html

uni obyektiv sabablar tufayli bajarib bo'lmashligi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Yoinki talab yuborilgan mas'ul shaxs ataylab prokuratura xodimi tomonidan belgilangan muddatda qo'yilgan talabni bajarmasligi va bunga qonunda aniq muddat belgilab qo'yilmaganligini asos qilib keltirishi mumkin. Bu esa, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddati kechikishiga, qonunbuzilishlari o'z vaqtida bartaraf etilmasligiga, asossiz qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi prokuror talabi bilan bog'liq muammoli holatlar kelib chiqmasligi uchun quyidagi prokuror talablarini bajarish muddatlarini taklif etamiz:

Prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish talabi uchun – darhol. Chunki bunday talabni bajarish talabni bajaradigan shaxsdan qo'shimcha o'rganishlar o'tkazishni, umuman olganda, uzoq vaqt talab qiladigan faoliyatni talab etmaydi.

Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan talabi uchun – 5 kunlik muddat. Bunday talabni bajarish ham ko'p muddatni talab etmaydi. Ammo kerakli hujjatlarni topish, chiquvchi hujjat sifatida ro'yxatdan o'tkazish kabi masalalarni inobatga olib 5 kunlik muddatni belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Taftish, tekshirishlar o'tkazish bilan bog'liq prokuror talabini bajarish uchun – 30 kunlik muddat. Mazkur muddatning belgilanishiga sabab shuki, tabiiy ravishda tekshirish va taftish o'tkazish muayyan muddatni talab qiladi. Chunki bu uchun taftish o'tkaziladigan obyektни o'rganish, ma'lumotlar yig'ish, natijalarini tahlil qilish, xulosalar chiqarish lozim ekanligini ham hisobga olish kerak (Ma'lumot o'rnida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 187⁷-moddasiga muvofiq, taftish o'tkazish muddati 30 kun etib belgilangan).

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar:

Birinchidan, "Qonunchilik hujjatlari" jumlasini "qonunlar" huquqiy terminlaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatgani bois, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasidagi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni

1-moddasi ikkinchi qismidagi “qonunlarning” jumlasini “qonunchilik hujjatlarining” jumlasiga o‘zgartirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, bir qator xorijiy davlatlarning, jumladan, Daniya, Shvetsiya, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Turkmaniston va boshqa davlatlarning ilg‘or tajribasi o‘rganildi hamda prokuratura to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish uchun bir necha takliflar ilgari surildi;

Uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasi asosida milliy qonunchiligimizni takomillashtirish istiqbollari belgilab olindi, ilgari surilayotgan takliflar prokuror tekshiruvlari bilan bog‘liq qanday masalalarni hal etishi, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish muddati, asoslari hamda prokurorning qonuniy talablari bilan bog‘liq muammalarning qanday bartaraf etish mumkin ekanligi va prokuratura organlarining yanada samarali faoliyat yuritishi uchun nimalar olib kelishi tahlil qilindi.

XULOSA

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi **ilmiy-nazariy, amaliy-tashkiliy va milliy qonunchilik bazasini** takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy asoslarga oid xulosalar:

1. Garchi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda qonunlar ijrosi ustidan tekshirish, prokuror tekshiruvlari jumalari bir necha bor qo‘llanilgan bo‘lsada, prokuror tekshiruvlari o‘zi nima ekanligi belgilanmagan, unga ta‘rif keltirilmagan. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini bilmasdan turib, uni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu boisdan, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq va to‘liq ochib beradigan ta‘rif keltirilishi lozim deb hisoblaymiz.

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda “prokuror tekshiruvi” ga quyidagicha ta‘rif keltirilishini taklif qilamiz: “**Prokuror tekshiruvi** bu – prokuratura organlari tomonidan muayyan qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan asoslar, muddatlar hamda tartiblarda davlat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda o‘tkaziladigan tekshiruvdir”.

II. Tashkiliy-huquqiy masalalarga oid xulosalar:

1. Prokuror tekshiruvlarida mutaxassislar ishtiroki bilan bog‘liq muammoli holatlarni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

prokuror tekshiruvlariga jalb etilgan mutaxassislar ushbu muddat davomida *asosiy ish joyidagi vazifalardan ozod etilishi bilan bog‘liq huquqiy normalarning qat‘iy ijro etilishini ta‘minlash;*

mutaxassislariga prokuror tekshiruvlarida ishtirok etgani uchun *qo‘chimcha haq* to‘lash;

bila turib prokuror tekshiruvlari uchun qonunbuzilish holatlari to‘g‘risida noto‘g‘ri xulosa taqdim etganlik uchun *mutaxassislarning javobgarligi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy normalarni takomillashtirish,*

jumladan, javobgarlikni yanada kuchaytirish. Bu qonunbuzilish holatlari haqida noto‘g‘ri ma‘lumotlar berilishining oldini oladi.

2. Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 17-yanvarda qabul qilingan 2202-I-sonli “Prokuratura idoralari to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasi, ikkinchi qismiga ko‘ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshirishi *qonun buzilishi haqidagi ma‘lumotlar* asosida hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko‘rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi qayd etilgan⁶⁰. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan ma‘lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma‘lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma‘lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo‘lishi belgilangan. Ammo milliy qonunchiligimizdagi prokuror tekshiruvi uchun asoslar qatorida bular mavjud emas.

Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishga asoslar qatorida internet axborot-kommunikatsiya tarmog‘ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma‘lumotlar ham bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz. Shu bois, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasida qayd etilgan prokuror tekshiruvi o‘tkazishga asoslar qatoriga yuqoridagi asoslar ham kiritilsa, prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish yanada takomillashgan hamda huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar o‘z vaqtida bartaraf etilgan bo‘lar edi.

3. Ilg‘or xorij tajribasi hamda amaliyotni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish bosqichlarining quyidagi turlari kiritilishini taklif qilamiz:

- Tayyorlov bosqichi;
- Asosiy bosqich;
- Yakuniy bosqich.

⁶⁰ Internet manbasi: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus58_leg_83.pdf

III. Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar

1. “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning III bo‘lim, Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat nomli 4-bobining 31-moddasi ikkinchi qism, 2-xatboshisiga binoan, prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida ushbu shaxslarga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta’sir ko‘rsatilishi yoki boshqacha tarzda ta’sir ko‘rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart.

Yuqorida keltirib o‘tilgan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisida “yaqin qarindoshlar” tushunchasining o‘rniga “yaqin kishilar” tushunchasi ishlatilgani ma’qul deb hisoblaymiz. Negaki yaqin kishilar tushunchasi yaqin qarindoshlardan ko‘ra kengroq shaxslar doirasini nazarda tutadi. Qolaversa, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralari qo‘llanilayotgan shaxslarga ruhiy, psixologik, jismoniy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxslar ham aynan ularning yaqin qarindoshlari singari alohida shaxsiy do‘stona munosabatda bo‘lgan shaxslarga tazyiq o‘tkazishi yanada ta’sirliroq bo‘lishini biladi. Shuningdek, “yaqin kishilar” tushunchasi alohida shaxsiy do‘stona munosabatda bo‘lgan boshqa shaxslarni ham qamrab olishini inobatga olib, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismi, 2-xatboshisi quyidagi tarzda bayon etilishini taklif qilamiz:

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sir ko‘rsatishning boshqa choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o‘z vakolatlari doirasida:

“ushbu shaxslarga yoki ularning yaqin kishilariga ruhiy, psixologik, jismoniy jihatdan salbiy ta’sir ko’rsatilishi yoki boshqacha tazyiq ko’rinishida ta’sir ko’rsatilishi ehtimolini majburiy tekshirishni amalga oshirishi shart”.

2. Qozog‘iston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasiga ko‘ra, qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish o‘ttiz ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi. Qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish zarurati tug‘ilganda, shuningdek, tekshirishning katta miqdori bilan bog‘liq holda, uni o‘tkazish muddati alohida hollarda o‘ttiz ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga va faqat Bosh prokuror, uning o‘rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi mumkin. Ekspertiza tayinlangan hollarda, shuningdek xorijiy davlatlardan ma’lumotlar va hujjatlarni olish zarur bo‘lganda – ular kelib tushgunga qadar, shuningdek auditorlik tekshiruvini o‘tkazishga to‘sqinlik qiladigan boshqa hollarda tekshirish to‘xtatilishi mumkin. To‘xtatilgan tekshirishni o‘tkazish muddatini hisoblash u qayta tiklangan kundan boshlab davom etadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga Qonunlar ijrosi bo‘yicha prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning quyidagi **muddatlarini** taklif qilamiz:

Prokuratura organlari qonun hujjatlari ijrosi bo‘yicha prokuror tekshiruvini 1 oy muddatda o‘tkazishlari lozim. Quyidagi hollarda tegishli prokuror tomonidan mazkur muddat yana bir oyga uzaytirilishi mumkin:

Prokuror tekshiruvlari bo‘yicha o‘tkazilishi ko‘p vaqtni talab qiladigan ekspertiza yoki taftish tayinlanganda;

Tekshiruv o‘tkazishning bir oylik muddatida qonunbuzilishlari to‘liq aniqlanmaganda, ammo tekshiruvni davom ettirish uchun hali asoslar mavjud bo‘lganda.

Shu bilan bir qatorda, tekshirishni o‘tkazish muddati alohida hollarda o‘ttiz ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga, faqat Bosh prokuror yoki uning o‘rinbosari bilan kelishilgan holda uzaytirilishi lozimligi O‘zbekiston Respublikasining

“Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilsa, ushbu Qonun yanada takomillashgan hamda uni qo‘llash samaradorligi oshgan bo‘lar edi.

3. Prokuror talablarini bajarishning quyidagi muddatlarini taklif etamiz:

Prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish talabi uchun – darhol. Chunki bunday talabni bajarish talabni bajaradigan shaxsdan qo‘shimcha o‘rganishlar o‘tkazishni, umuman olganda, uzoq vaqt sarf etiladigan faoliyatni talab etmaydi.

Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etish yuzasidan talabi uchun – 5 kunlik muddat. Bunday talabni bajarish uchun ham ko‘p muddat ketmaydi. Ammo kerakli hujjatlarni topish, chiquvchi hujjat sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish kabi masalalarni inobatga olib 5 kunlik muddatni belgilash lozim deb hisoblaymiz.

Taftish, tekshirishlar o‘tkazish bilan bog‘liq prokuror talabini bajarish uchun – 30 kunlik muddat. Mazkur muddatning belgilanishiga sabab shuki, tabiiy ravishda tekshirish va taftish o‘tkazish muayyan muddatni talab qiladi. Chunki bu uchun taftish o‘tkaziladigan obyektни o‘rganish, ma‘lumotlar yig‘ish, natijalarini tahlil qilish, xulosalar chiqarish lozim ekanligini ham hisobga olish kerak (Ma‘lumot o‘rnida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 187⁷-moddasiga muvofiq, taftish o‘tkazish muddati 30 kun etib belgilangan).

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bo‘lim, XXIV bob, 118-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘RQ-257-II-sonli “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. “Qonun hujjatlarining” jumlasini ancha keng doirada bo‘lib, o‘z ichiga qonun hujjatlarini ham, qonunosti hujjatlarini ham olishini inobatga olib, yuqoridagi moddalarda belgilangan “qonunlarning” jumlasini o‘rniga “qonunchilik hujjatlarining” jumlasini qayd etilishi lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 7-yanvarda prokuratura xodimlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqi;

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 31-avgustda Xalqaro forumlar saroyida Qurbon hayiti va Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan nutqi;

1.3. I.A.Karimov. Adolat-qonun ustuvorligida. Xalq so'zi. 2001, 30-avgust.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston” nashriyoti matbaa-ijodiy uyi. 1992-yil 8-dekabr, 72 bet;

2.2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son;

2.3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-y., 2-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2019-y., 03/19/597/4193-son;

2.4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son;

2.5. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9 dekabrda “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni;

2.6. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda “Prokuratura to'g'risida”gi (yangi tahrirda) Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son);

2.7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-aprelda 471-son bilan qabul qilingan “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni;

2.8. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda 474-I-son bilan qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni;

2.9. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 10-oktabrda 502-son bilan yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni;

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi PF-5438-sonli “Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni;

2.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

III. Davriy nashr va juranallar:

3.1. K. Ismailov. “Mas’uliyat va ruhiyat: sud va prokuratura organlari xodimlarining ish faoliyatida psixologik baholash tizimi haqida”. Maqola, “Huquq va burch” jurnali.2010-yil. 7-8-son.2 bet;

3.2. A.Sangilov. “Prokuratura organlari: nazorat-tahlil faoliyati”. Maqola, “Huquq va burch” jurnali. 2011-y.4-son. 6 bet;

3.3. J.Fayziyev. “Qonun hujjatlari ijrosi prokuratura organlarining doimiy nazoratida”. Maqola, “Huquq va burch” jurnali.2014-y.11-son. 6 bet.

3.4. F.Otajonov. Prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi va qonuniylikni ta’minlashdagi roli. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Axborotnomasi. №1 (49) 2022-yil.

3.5. Берензон А.Д., Гудкович Ю.Д. Прокурорский надзор за исполнением законов органами вневедомственного контроля и взаимодействие прокуроров с ними при осуществлении общего надзора. М.: Юрид. лит., 1976.

3.6. Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? 2019. С.51 – 52.

3.7. Винокуров А.Ю. Привлечение прокурором специалиста при проведении проверки исполнения закона // Администрат. и муницип. право. 2017. № 10.

3.8. Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo‘nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiy tahriri ostida. – T.: “Noshir” nashriyoti, 2008. – B. 87-94.

IV. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

4.1. Madaliev O.M. Prokuror nazorati. Toshkent: “ILM ZIYO”, 2012. y. – 532 b;

4.2. B.X. Po‘latov “Prokuror nazorati”. Darslik. T.: “O‘zbekiston” 2009. B. 130.

4.3. Гуценко К.Ф. Правоохранительные органы в СССР; проблемы теории и практики реодавания // Вестник Московского университет, 1989.- № 2.- С.22;

4.4. Семенов В.М. Правоохранительные органы: Дарслик. – М.: Юрид. лит., 1991. – В. 28-29;

4.5. Бороцин С.В. Правоохранительные органы Россия.-М., 1996. - С.9-10ю;

4.6.. Веретенников В.И. Очерки истории генерал-прокуратуры в России. - Харьков, 2001. - 27 с..

4.7. Ф.М Раянов. Проблемы теории государства и права. М., «Право и государство», 2003, 294-бет;

4.8. Rustamboyev M.H., Nikiforova E.N. Huquqni muhofaza qilish organlari: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.-Toshkent: ZAR QALAM, 2005.- B.22;

4.9. Axmedshayeva M.A. Davlat va huquq rivojining hozirgi zamon tendentsiyalari / Mas 'ul muharrir: yu.f.d., prof. Z.M.Islomov. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2016;

4.10. Haydarov A.A.“O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining huquqiy faoliyati” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. 55-bet;

4.11. Safarov S. Huquqni muhofaza qilish tizimi tushunchasi va mohiyati // Falsafa va huquq. Toshkent, 2009.-№2.-19-21 b;

4.12. Islomov Z.M., Abbosxo‘jaev S. Konstitutsiya-huquq ustunligi asosi/ X.B.Boboevning umumiy tahriri ostida.-Toshkent: O‘zbekiston, 2012. -B. 130;

4.13. Исмоилов Н. Правовые проблемы залога как способа обеспечения исполнения обязательств. Автореф. ...канд. юр.наук. -Ташкент: 1999. – С. 50.

4.14. Додонов В.Н.,Крутских В.Е. Прокуратура в России и за рубежом. – М..2001. – Стр.15

4.15. Виноградов О. Прокуратура в системе органов государственной власти // Законность, 2000. -№4. – С. 2-4.

4.16. Терегубов М. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края // Москва, 2003.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

5.1. Долежан В.В. Проблемы компетенции прокуратуры : дис.... д-ра юрид. наук. М., 1991.

5.2. Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов. 2010.С.25-26.

5.3. Виноградов О. Прокуратура в системе органов государственной власти // Законность, 2000. -№4. - С. 2-4.

5.4. Терегубов М. Прокурорский надзор в народном суде Туркестанского края // Москва, 2003.

5.5. Maxbubov M. O‘zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi. Yur.fanlar doktorligi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- Toshkent, 1993 yil. 16-bet.

5.6. Haydarov Asqarali Akbaraliyevich. “O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining huquqiy faoliyati” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent. 55-bet.

5.7. Ibragimov Z.S. Davlat hokimiyati tizimida prokuraturaning o‘rni va roli. Toshkent, 2010. 379 bet.

VI. Internet saytlari:

- 6.1. http://ru.wikipedia.org/wiki/Правовой_статус;
- 6.2. <https://cis-ligislation.com/document.fwxgn;>
- 6.3. https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31690116#pos=5;-245;
- 6.4. <http://www.lex.uz;>
- 6.5. <http://www.huquqburch.uz;>
- 6.6. <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=H107002205.7;>
- 6.7. <http://www.dissercat.com/content/akty-prokurorskogo-reagirovaniya-v-rossiiskom-ugolovnom-sudoproizvodstve;>
- 6.8. [http://www.forumshoes.ru/uz/organizacionno-provovaya-forma-i-vid-deyatelnosti-predpriyatiya-vidy/;](http://www.forumshoes.ru/uz/organizacionno-provovaya-forma-i-vid-deyatelnosti-predpriyatiya-vidy/)
- 6.9. [http://www.gree-conditions.ru/uz/novye-organizacionno-pravovye-formy-organizacii-status-vidy-i-organizacionno-pravovye-formy-yuridich/.](http://www.gree-conditions.ru/uz/novye-organizacionno-pravovye-formy-organizacii-status-vidy-i-organizacionno-pravovye-formy-yuridich/)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНИ

«ПРОКУРАТУРА ТЎҒРИСИДА»ГИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚОНУНИГА ЎЗГАРТИШЛАР ВА ҚЎШИМЧАЛАР КИРИТИШ
ҲАҚИДА

1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрда қабул қилинган «Прокуратура тўғрисида»ги 746-ХП-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августда қабул қилинган 257-П-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 йил, № 9-10, 168-модда; 2003 йил, № 5, 67-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 6, 249-модда; 2008 йил, № 9, 487-модда, № 12, 636-модда; 2011 йил, № 4, 101-модда; 2012 йил, № 9/2, 244-модда; 2015 йил, № 8, 310-модда; 2016 йил, № 9, 276-модда; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 4, 218-модда, № 7, 431-модда; 2019 йил, № 1, 1, 5-моддалар, № 5, 267-модда, № 11, 791-модда; 2020 йил № __, __, __, __, __-модда) куйидаги ўзгартиш ва қўшимчалар киритилсин:

1) 6-модда қуйидаги 4-кисм билан тўлдирилсин:

“Прокурор талаблари қуйидаги муддатларда бажарилади:

Прокуратурага келиш ва аниқланган қонунбузарликлар хусусида тушунтиришлар бериш талаби – дарҳол;

Прокурорнинг ҳужжатлар, материаллар ва бошқа маълумотларни тақдим этиш юзасидан талаби – 5 кунлик муддатда;

Тафтиш, текширишлар ўтказиш билан боғлиқ прокурор талабини бажариш – 30 кунлик муддатда.

2) 21-модда қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

“Прокурор текшируви прокуратура органлари томонидан муайян қонун ҳужжатларининг аниқ ва бир хилда ижро этилиши бўйича қонун ҳужжатларида белгиланган асослар, муддатлар ҳамда тартибларда давлат органлари, корхона, муассаса ва ташкилотларда ўтказиладиган текширувдир.

Қонунлар ижросини текшириш таркибий тармоқлар иш режалари, ҳайъат қарорлари, раҳбарият кўрсатмалари, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари, қонунбузилиши ҳақидаги маълумотлар, оммавий-ахборот воситаларининг хабарлари, учувчисиз ҳаво воситалари ёрдамида олинган маълумотлар, шунингдек қонунийлик прокурор томонидан чоралар кўрилишини талаб қиладиган ҳолатда эканлигидан келиб чиққан ҳолда қонунда белгиланган тартибда ўтказилади.

Прокуратура органлари қонун ҳужжатлари ижроси бўйича прокурор текширувини 1 ой муддатда ўтказишлари лозим. Қуйидаги ҳолларда тегишли прокурор томонидан мазкур муддат яна бир ойга узайтирилиши мумкин:

Прокурор текширувлари бўйича ўтказилиши кўп вақтни талаб қиладиган экспертиза ёки тафтиш тайинланганда;

Текширув ўтказишнинг бир ойлик муддатида қонунбузилишлари тўлиқ аниқланмаганда, аммо текширувни давом эттириш учун ҳали асослар мавжуд бўлганда.

Текширишни ўтказиш муддати алоҳида ҳолларда ўттиз иш кунидан кўп бўлмаган муддатга ва фақат Бош прокурор, унинг ўринбосари билан келишилган ҳолда узайтирилиши лозим”;

3) 21¹-модда билан тўлдирилсин:

Қонунлар ижроси юзасидан прокурор текширувларини ўтказиш тайёрлов, асосий ва якуний босқичларга бўлинади.

Тайёрлов босқичида текширув ўтказувчи прокуратура ходими қайси Қонун ижроси устидан текшириш ўтказишини, текшириш ўтказиш предмети ва мақсадини, текшириш ўтказишга қандай қонуний асос сабаб бўлаётганлигини, ушбу қонун ҳужжати асосида қабул қилинган қонуности ҳамда идоравий-норматив ҳужжатларни, текшириш ўтказиладиган давлат органи, хўжалик бошқарув органи ёки корхона, муассаса, ташкилотнинг асосий вазифалари ҳамда функцияларини, улар мансабдор шахсларининг ҳуқуқлари ва мажбуриятларини аниқлаб олиши лозим.

Асосий босқичда текширув ўтказувчи прокуратура ходими томонидан тегишли шахслардан тушунтириш хатлари олинади, муайян ҳаракатни бажариш ёки бажармаслик юзасидан талабномалар киритилади, текшириш ўтказишга кўмаклашиш учун мутахассислар жалб этилади, қонунбузилиш ҳолатлари аниқланади ва тегишли таъсир чораларини қўллаш масаласи кўриб чиқилади.

Якуний босқичда текшириш ўтказувчи томонидан тегишли қонун ҳужжати ижроси бўйича барча қонунбузилишлари аниқлаб бўлинади. Аниқланган қонунбузилишларини бартараф этиш учун лозим бўлган прокурор назорати ҳужжатлари киритилади ва улар бўйича кўрилган чоралар хусусида ташкилотлардан маълумотномалар ва бошқа ҳужжатлар қабул қилиб олинади, тақдимномалар коллегиял орган томонидан кўриб чиқиладиган ҳолларда эса, унинг мажлисларида прокурор иштироки таъминланади, зарур бўлган ҳолларда юқори турувчи прокурорга ўтказилган текширув бўйича ахборот киритилади.

3-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

давлат бошқаруви органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин;

ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

4-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни лойиҳасига

ҚИЁСИЙ ЖАДВАЛ

№	Амалдаги таҳрир	Таклиф этилаётган таҳрир	Асослантириш
1.	Ўзбекистон Республикасининг 29.08.2001 йилдаги “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни		
	<p>6-модда. Прокурор талаблари бажарилишининг мажбурийлиги</p> <p>Прокурорнинг ҳужжатлар, материаллар ва бошқа маълумотларни тақдим этиш, тафтиш, текширишлар ўтказиш, мутахассис ажратиш, прокуратурага келиш ва аниқланган қонунбузарликлар хусусида тушунтиришлар бериш, қонунбузарликларни, уларга имконият яратаётган сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этиш, шунингдек қонунга риоя этиш тўғрисидаги ўз ваколатлари доирасида қўяётган талабларини бажариш барча фуқаролар ва юридик шахслар учун мажбурийдир.</p> <p>Прокуратура органлари ўз вазифаларини амалга оширишлари учун зарур бўлган ахборот, ҳужжатлар ва уларнинг нусхалари мазкур органларнинг талабига мувофиқ бепул берилади.</p> <p>Прокурорнинг талаблари устидан шикоят қилиниши уларнинг ижросини тўхтатиб қўймайди.</p> <p align="center">4-қисм билан тўлдирилмоқда</p>	<p>Прокурор талаблари қуйидаги муддатларда бажарилади:</p> <p>Прокуратурага келиш ва аниқланган қонунбузарликлар хусусида тушунтиришлар бериш талаби – <i>дарҳол</i>;</p> <p>Прокурорнинг ҳужжатлар, материаллар ва бошқа маълумотларни тақдим этиш юзасидан талаби – <i>5 кунлик муддатда</i>;</p> <p>Тафтиш, текширишлар ўтказиш билан боғлиқ прокурор талабини бажариш – <i>30 кунлик муддатда</i>.</p>	<p>Мазкур моддадаги муаммоли жиҳат шундаки, унда прокурорнинг ҳужжатлар, материаллар ва бошқа маълумотларни тақдим этиш, тафтиш, текширишлар ўтказиш, мутахассис ажратиш, прокуратурага келиш ва аниқланган қонунбузарликлар хусусида тушунтиришлар бериш, қонунбузарликларни, уларга имконият яратаётган сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этиш, шунингдек қонунга риоя этиш тўғрисидаги ўз ваколатлари доирасида талаблар қўйиши белгилаб ўтилган, аммо мазкур талабларнинг талаб юборилган давлат органи, корхона, муассаса, ташкилот, уларнинг мансабдор шахслари ҳамда фуқаролар томонидан бажарилишининг аниқ муддати белгиланмаган.</p> <p>Фикримизча, бундай талаб назарда тутилганидан сўнг, бундай талабларни бажаришнинг аниқ тартиби ва муддатлари ҳам қонун ҳужжатида белгилаб қўйилиши лозим.</p> <p><i>Туркменистон</i> Республикасининг “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуни 9-моддасида прокурорнинг қонуний талабларини бажариш мажбурияти белгилаб қўйилган. Унда белгиланишича, Конституция ҳамда Туркменистон қонунларида назарда тутилган ваколатларидан келиб чиқадиган прокурорнинг талаблари барча корхоналар, ташкилотлар, муассасалар учун мажбурийдир.</p>

		<p>Шунингдек, мазкур модданинг биринчи қисмида ҳам прокурор талаблари белгиланган муддатда бажарилиши лозимлиги қайд этилган. Аммо ушбу муддат қанча эканлиги аниқ ва қатъий белгиланмаган.</p>
<p>21-модда. Қонунлар ижроси юзасидан текшириш. Қонунлар ижросини текшириш қонунларнинг бузилаётганлиги тўғрисидаги аризалар ва бошқа маълумотлар асосида, шунингдек қонунийлик прокурор томонидан чоралар кўрилишини талаб қиладиган ҳолатда эканлигидан келиб чиққан ҳолда қонунда белгиланган тартибда ўтказилади.</p>	<p>21-модда. Қонунлар ижроси юзасидан текшириш. Прокурор текшируви прокуратура органлари томонидан муайян қонун ҳужжатларининг аниқ ва бир хилда ижро этилиши бўйича қонун ҳужжатларида белгиланган асослар, муддатлар ҳамда тартибларда давлат органлари, корхона, муассаса ва ташкилотларда ўтказиладиган текширувдир. Қонунлар ижросини текшириш таркибий тармоқлар иш режалари, ҳайъат қарорлари, раҳбарият кўрсатмалари, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари, қонунбузилиши ҳақидаги маълумотлар, оммавий-ахборот воситаларининг хабарлари, учувчисиз ҳаво воситалари ёрдамида олинган маълумотлар, шунингдек қонунийлик прокурор томонидан чоралар кўрилишини талаб қиладиган ҳолатда эканлигидан келиб чиққан ҳолда қонунда белгиланган тартибда ўтказилади. Прокуратура органлари қонун ҳужжатлари ижроси бўйича прокурор текширувини 1 ой муддатда ўтказишлари лозим. Қуйидаги ҳолларда тегишли прокурор томонидан мазкур муддат яна бир ойга узайтирилиши мумкин: Прокурор текширувлари бўйича ўтказилиши кўп вақтни талаб қиладиган экспертиза ёки</p>	<p>Гарчи “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунда прокурор текширувлари тушунчаси бир неча бор қўлланилган бўлсада, прокурор текширувлари ўзи нима эканлиги белгиланмаган, унга таъриф келтирилмаган. Мазкур тушунчанинг мазмун-моҳиятини билмасдан туриб, уни ўтказиш асослари ва тартибини белгилаш мантиқан тўғри бўлмайди. Шу боисдан, “Прокуратура тўғрисида”ги Қонунда “прокурор текшируви” тушунчасининг мазмун-моҳиятини аниқ ва тўлиқ очиқ берадиган таъриф келтирилиши лозим деб ҳисоблаймиз.</p> <p>“Прокуратура тўғрисида”ги Қонуннинг 21-моддасида белгиланган нормалар анчайин тор доирада эканлигини кўришимиз мумкин. Яъни унда прокурор текширувларини ўтказиш учун асослар тўла ва қатъий тартибда акс эттирилмаган. Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 172-сонли соҳавий Буйруғи билан тасдиқланган Намунавий Регламентда прокурор текширувларини ўтказишнинг нисбатан тўла асослари белгилаб кўйилган.</p> <p><i>Россия Федерациясининг</i> 1992-йил 17-январда қабул қилинган 2202-И-сонли “Прокуратура идоралари тўғрисида”ги Қонуни</p>

		<p>тафтиш тайинланганда;</p> <p>Текширув ўтказишнинг бир ойлик муддатида қонунбузилишлари тўлиқ аниқланмаганда, аммо текширувни давом эттириш учун хали асослар мавжуд бўлганда.</p> <p>Текширишни ўтказиш муддати алоҳида ҳолларда ўттиз иш кунидан кўп бўлмаган муддатга ва фақат Бош прокурор, унинг ўринбосари билан келишилган ҳолда узайтирилиши лозим</p>	<p>21-моддаси, иккинчи қисмига кўра, прокурорнинг қонунлар ижроси устидан назорат текшириши қонун бузилиши ҳақидаги маълумотлар асосида ҳамда қонунийлик прокурор томонидан чора кўрилишини талаб қиладиган ҳолатда эканлигидан келиб чиқиб амалга оширилиши белгиланган . Шунингдек, прокурор текширувларини ўтказишга интернет ахборот-коммуникация тармоғида жойлаштирилган маълумотлар, федерал давлат ахборот тизимлари маълумотлари, учувчисиз ҳаво воситалари ёрдамида олинган маълумотлар ва аерофотосуратлар ҳам асос бўлиши белгиланган. Аммо миллий қонунчилигимизда белгиланган прокурор текшируви учун асослар қаторида булар мавжуд эмас.</p> <p>Ахборотларнинг асосий қисми замонавий технология воситалари ёрдамида алмашиладиган бугунги дунёда прокурор текширувларини ўтказишга асослар қаторида интернет ахборот-коммуникация тармоғида жойлаштирилган хабарлар ҳамда учувчисиз ҳаво воситалари ёрдамида олинган маълумотлар ҳам бўлиши лозим деб ҳисоблаймиз. Шу боис, “Прокуратура тўғрисида”ги Қонуннинг 21-моддасида қайд этилган прокурор текшируви ўтказишга асослар жумласига юқоридаги асослар ҳам киритилса, прокурор текширувларини ўтказиш янада такомиллашган ҳамда ҳуқуқбузарликлар ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар ўз вақтида бартараф этилган бўлар</p>
--	--	---	---

			ЭДИ.
--	--	--	------

	<p style="text-align: center;">Тўлдирилмоқда</p>	<p style="text-align: center;">21¹-модда. Прокурор текширувларини ўтказиш босқичлари.</p> <p>Қонунлар ижроси юзасидан прокурор текширувларини ўтказиш тайёрлов, асосий ва якуний босқичларга бўлинади.</p> <p>Тайёрлов босқичида текширув ўтказувчи прокуратура ходими қайси Қонун ижроси устидан текшириш ўтказишини, текшириш ўтказиш предмети ва мақсадини, текшириш ўтказишга қандай қонуний асос сабаб бўлаётганлигини, ушбу қонун ҳужжати асосида қабул қилинган қонуности ҳамда идоравий-норматив ҳужжатларни, текшириш ўтказиладиган давлат органи, хўжалик бошқарув органи ёки корхона, муассаса, ташкилотнинг асосий вазифалари ҳамда функцияларини, улар мансабдор шахсларининг ҳуқуқлари ва мажбуриятларини аниқлаб олиши лозим.</p> <p>Асосий босқичда текширув ўтказувчи прокуратура ходими томонидан тегишли шахслардан тушунтириш хатлари олинади, муайян ҳаракатни бажариш ёки бажармаслик юзасидан талабномалар киритилади, текшириш ўтказишга кўмаклашиш учун мутахассислар жалб этилади, қонунбузилиш ҳолатлари аниқланади ва тегишли таъсир чораларини қўллаш масаласи кўриб чиқилади.</p> <p>Якуний босқичда текшириш ўтказувчи томонидан тегишли қонун ҳужжати ижроси бўйича барча қонунбузилишлари аниқлаб бўлинади. Аниқланган қонунбузилишларини бартараф этиш учун лозим бўлган прокурор назорати ҳужжатлари киритилади ва улар бўйича кўрилган чоралар хусусида ташкилотлардан маълумотномалар ва бошқа ҳужжатлар қабул қилиб олинади, тақдимномалар коллегиял орган томонидан кўриб чиқиладиган</p>	<p>Таклиф этилаётган модда амалиётдан келиб чиккан ҳолда, самарали, тизимли ҳамда сифатли прокурор текширувларини ўтказишда босқичлар асосида фаолият юритишнинг ҳуқуқий асосларини яратишга хизмат қилади.</p> <p>Прокурор текширувлари ўз вақтида, сифатли ҳамда тартибли ўтказилиши учун мазкур кекширувларнинг муайян босқичлар асосида амалга оширилиши жуда ҳам муҳимдир. Прокурор текширувларининг маълум босқичлар асосида ўтказилиши қуйидаги афзалликлар эга деб ҳисоблаймиз:</p> <p>Агарда прокурор текширувлари муайян босқичлар асосида амалга оширилса, текширув ўтказувчи прокуратура ходими нимани текширишига, текшириш объектнинг қандай жиҳатларига аҳамият бериши лозим эканлигига аниқлик киритиб олади;</p> <p>Шунингдек, прокуратура ходими босқичлар асосида текширувни амалга ошириш орқали анчагина вақтдан ютуши мумкин. Яъни маълум босқичларсиз, пала-партиш ўтказиладиган текширув жуда узоқ вақт талаб этади, натижада прокуратура ходими ўзига юклатилган бошқа хизмат вазифаларини бажара олмаслиги ҳамда унга нисбатан тегишли таъсир чоралари қўлланилиши мумкин. Қолаверса, тартибсиз ҳамда узоқ вақт давомида ўтказилган прокурор текшируви орқали қонунбузилишларини аниқлаш ҳолати ҳам кечикиши ва бунинг оқибатида ҳуқуқбузарликларни яширишга қулай имконият яратиб берилиши мумкин.</p>
--	---	--	---

		ҳолларда эса, унинг мажлисларида прокурор иштироки таъминланади, зарур бўлган ҳолларда юқори турувчи прокурорга ўтказилган текширув бўйича ахборот киритилади.	
--	--	--	--